



KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH:

DASTUR IJROSI VA MUAMMO YECHIMLARI

Kambag'allikni qisqartirish masalasi bugungi islohotlarning asosini tashkil etadi. Chunki ushbu muammoning hal etilishi mamlakatimiz iqtisodiyoti va xalqimiz farovon hayotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo'sh, kambag'allikni qisqartirish choralari o'zi nimalardan iborat? Aholining ehtiyojmand qatlami qanday moliyaviy ko'maklar vositasida qo'llab-quvvatlanadi? Davlat dasturlari ijrosini ta'minlashda qanday muammolar mavjud va ularning yechimi nimalarda ko'rinadi?

Ushbu savollarga javob olish maqsadida **Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti xodimi Tursun AHMEDOV**ga murojaat qildik.

– Mamlakat iqtisodiyoti uchun aholining yashash tarzi va ularning moliyaviy imkoniyatlari muhim hisoblanadi, – dedi T.Ahmedov. – Shu jihatdan qaraganda, har bir davlat, birinchi navbatda, kambag'allikni qisqartirish choralari ko'radi, bu yo'lda xalqaro tajribani o'rganadi va o'zining dasturlarini ishlab chiqadi.

Avvallari "kambag'allik" so'zi taomilimizda bo'lmagan. O'tgan besh yillikda esa kambag'allikni qisqartirish



tendensiyasi bilan bog'liq qator ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin rivojlangan xorijiy davlatlarda birinchi o'rinda aholining kam ta'minlangan

qatlamiga moliyaviy ko'mak berish chora-tadbirlari ko'rilgan.

Mamlakatimizda ham bu borada xorijiy tajribalar

o'rganilib, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan milliy dasturlar ishlab chiqildi.

Davomi 3-sahifada.

YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ZAMONAVIIY ISH USLUBLARI JORIIY ETILMOQDA

Joriy yil 11-fevral kuni davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasidagi tizimli muammolar tanqid qilinib, ularning yechimi bo'yicha vazifalar belgilab berildi.

Prezidentimiz tomonidan qo'yilgan vazifalar ijrosi hamda uning natijalari qachon va nimalarda aks etadi? Bu haqda **O'za muxbiri ichki ishlar vaziri, general-leytenant Po'lat BOBOJONOV** bilan suhbatlashdi.

– Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha zamonaviy ish uslublari va "inson omil"ni cheklovchi raqamli texnologiyalar joriy etilmoqda, – dedi P.Bobojonov. – Masalan, fuqarolar bilan bevosita muloqotni cheklash uchun xodimlar plan-shetlar, bodikameralar bilan ta'minlandi. Qoidabuzarliklarni elektron tarzda rasmiylashtirish



amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Yo'larga 367 ta radar va 1 ming 584 ta videokamera o'rnatildi. Jumladan, Toshkent shahridagi 111 chorrahaga 1 ming 20 ta videokamera o'rnatilib, shahar IIBBning situatsion markaziga integratsiya qilindi.

Tizimda korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida 4 mingdan ortiq xodim attestatsiyadan o'tkazildi. Keyingi 3,5 yilda yo'llarda xizmat olib boruvchi yo'l-patrol xizmati xodimlarining deyarli 70 foizi

to'liq almashtirildi. Fuqarolar ovoragarchiligining oldini olish uchun 31 ta YPX maskani qisqartirildi.

Lekin tahlillar sohada bir qator muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Ochiq tan olish kerak, bugungi kunda yo'llarda fuqarolar uchun xavfsiz sharoit yaratish, haydovchilarni tayyorlash va harakatlanish madaniyatini shakllantirish borasidagi ishlar talabga to'liq javob bermaydi.

Davomi 2-sahifada.

MUTOLAA

O'TMISHNI YORITUVCHI CHIROQLAR

(Oybekning "Navoiy" va Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" asarlarini o'qib)

Bu ikki asarni birga o'qigan o'qirman egizaklarni adashtirib qo'ygani kabi shoshib qolishi, o'xshash voqealarni ikki asardan bitta ipga terib, qo'shib-chatib aytishi bor gap! Lekin egizaklar qiyofasi o'xshash bo'lmasin, ularning xarakter xususiyati, dunyoqarashi turlicha bo'ladi. Buni ziyarak kitobxon tez angelaydi. Biroq inkor etib bo'lmas yana bir haqiqat borki, bu ikki asar ezgulik yo'lida birlashgan musht kabi bir-birini to'ldiradi.

Har safar Oybekning "Navoiy" romani haqida eshitsam, undan iqtiboslar o'qisam yoxud syujetiga o'xshash voqealarga duch kelsam, ilm ahli Sultonmurodga qo'l bergan, sarkardalardan ham ortiq mardlik ko'rsatib, qilichini hassa kabi suyab tepalikka shahd ila chiqib ketayotgan, chodiridagi musicha tuxumlarini asrab qolgan, "Gar turo dar bihisht jo boshad, Diga ron do'zax ixtiyor kunand" (Sen jannatga tushadigan bo'lsang, boshqalar do'zaxni afzal qiladilar (Oybek, "Navoiy", "Yangi asr avlodi" 2019, 312-bet) deya vijdonsiz amaldor Majiddiddinga xayolan hujum qilayotgan

haqiqatpesha, ilmparvar, mehribon Navoiy shuurimda gavalanardi. Endi Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanini mutolaa qilib, ma'lumotlar va tuyg'u "omborim"ga shoirning bolalik damlari, Mashhad-u Samarqandda chekkan rutubatlari, ota-ona ruhlarini uchun Ansoriy maqbarasini supurib topgan quvonchlarini (Isajon Sulton, "Alisher Navoiy", "Adabiyot", 2021, 392-bet) ham qo'shishim mumkin. Shubhasiz, ikki asar ham kitobxoniga Navoiy siymosini yaqinlashtiradi, uni his qilishga ko'mak beradi.

Davomi 11-sahifada.

YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ZAMONAVIY ISH USLUBLARI JORIY ETILMOQDA

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Har yili yo'llarimizda 10 mingtagacha avtoavariya sodir etilmoqda. Buning oqibatida o'tgan yili 2,5 mingga yaqin insonlar bevaqt hayotdan ko'z yumdi, 9 mingdan ortig'i turli darajada tan jarohati oldi.

Bunga asosan haydovchilarning o'qitish sifati, qoidabuzarlarga nisbatan jazo ta'sirining yetarli emasligi, haydovchilarning yo'l harakati qoidalariga qasddan amal qilmasligi, shuningdek, yo'l infratuzilmasidagi kamchiliklar sabab bo'lmoqda.

Qonun-qoidalarni mensimaslik shu darajaga yetganki, hatto 13 mingdan ziyod fuqaro haydovchilik guvohnomasi mast holda transport vositasini boshqargan.

Avariylarning 20 foizi tezlikka rioya qilmaslik, 25 foizi yo'llardagi kamchiliklar, 47 foizi piyodalar ishtirokida, 10 foizi haydovchilarning tajribasizligi, 8 foizi qarama-qarshi yo'nalishga chiqib ketish, 6 foizi veloyolak bo'lmaganligi oqibatida sodir etilgan.

Demak, yo'l-transport hodisalarining salmoqli qismi piyodalar ishtirokida sodir etilayotganini ko'rsatmoqda. Oqibatda o'tgan yili 965 nafar piyoda, shundan 263 nafar bola vafot etgan.

- Bolalar ishtirokidagi yo'l-transport hodisalarining oldini olish borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda? Bu boradagi kelgusi rejalar qanday?

- 380 ta umumta'lim maktabida yo'l harakati qoidalarini o'qitish bo'yicha maxsus sinfonalar, yana 167 ta maktabda yo'l harakatini o'rgatish maydonchalari tashkil etildi.

Mazkur sharoitlardan foydalanib, maktablarda o'quvchilarga yo'l harakati qoidalarini bo'yicha zaruriy tushunchalar berilmoqda. Yo'llarda o'zini xavfsiz tutish yuzasidan ko'nikmalar shakllantirilmoqda. Lekin mazkur ishlar bilan respublikadagi 4 foizgina maktablar qamrab olingan, xolos.

Shuning uchun barcha maktablarda maxsus sinfonalar tashkil etilib, "Yo'l harakati xavfsizligi" bo'yicha alohida fan kiritish taklif qilinmoqda. Turkiya tajribasidan kelib chiqib, yo'l harakati qoidalariga moslashtirilgan "Yo'l harakati xavfsizligi" istirohat bog'larini tashkil qilish rejimiz bor.

Koreya tajribasi asosida maktab yonidan o'tgan yo'lning 300 metr masofasida transport vositalari harakatlanish tezligining yuqori chegarasini 30 km/soat etib belgilash taklif etilyapti. Bundan tashqari, maktablarga o'quvchilarning kelib-ketishlari uchun maxsus avtobuslar harakatini bosqichma-bosqich yo'lga qo'yish zarurati bor.

Har bir mahallada yo'l harakati qoidalariga amal qilish yuzasidan tushuntirish-targ'ibot ishlari yo'lga qo'yiladi. Bunda Norvegiya, Germaniya,

Niderlandiya kabi davlatlarning jamoat transporti va velosipedlardan ko'proq foydalanishini aholiga tushuntirishga e'tibor qaratiladi.

Albatta, buning uchun jamoat transporti imijini ko'tarish, veloyolaklar tashkil etish, yo'l infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha hokimliklar, Avtomobil yo'llari qo'mitasi, Transport vazirligi bilan birga mahallalarda ish olib borish kerak bo'ladi.

- Yig'ilishda yo'llar infratuzilmasidagi kamchiliklar ham qattiq tanqid ostiga olingdi. Mazkur muammolar qanday bartaraf etiladi?

- Tahlillar har beshinchi yo'l-transport hodisasi yo'llarda munosib infratuzilma va xavfsiz harakatlanish uchun zaruriy sharoitlar yaratilmaganini sababli sodir etilganligini ko'rsatmoqda. Xususan, 2 ming 248 kilometr yo'llarda qarama-qarshi yo'nalishlarni ajratuvchi to'siqlar o'rnatilmagan. 3 ming 571 kilometr trotuar, 2 ming 337 kilometr veloyolaklar tashkil etilmagan, 2 ming 731 ta tartibga solinmagan piyodalar o'tish joylari yoritilmagan. Shuningdek, 1 ming 835 ta joyga shovqin chiziqlarini chizish, 2 ming 904 ta joyga sun'iy notekisliklar yaratish, 750 ta svetofor o'rnatish zarurati mavjud.

O'z navbatida, bugun yo'llarda 200 mingta yo'l belgilari yetishmaydi. Mavjud 105 mingdan ziyodi esa zamonaviy turdagi yo'l belgilariga almashtirilmagan. Mahalliy hokimliklar qoshidagi Yo'l harakatini tashkil etish, maxsus o'rnatish va foydalanish bo'linmalari mavjud ehtiyojning atigi 50 foizini ta'minlamoqda.

Xususan, 2019-2021-yillarda respublika bo'yicha o'rnatilishi lozim bo'lgan 610 mingta yo'l belgisidan 304 ming 775 tasi talabga javob beradi, xolos. Bundan tashqari, aholi gavjum joylarda 25 ta yer osti va yer usti piyodalar o'tish joylarini qurishga zarurat bor.

Shuning uchun ham videoselektor yig'ilishida muhim yangilik - hokimliklarning Maxsus ekspluatatsiya-montaj bo'linmalarini Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi xizmati tarkibiga o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilindi. Endi ularning faoliyatini zamonaviy talablar asosida tubdan takomillashtirish lozim.

Yo'l belgilarini o'rnatish va yo'l chiziqlari chizish faoliyati outsorsing asosida xususiy sektorga beriladi. Mazkur tadbirlarni moliyalashtirish uchun "Xavfsiz yo'l va xavfsiz piyoda" respublika hamda viloyat jamg'armalari tashkil etiladi. Shuningdek, yo'l belgilarini ishlab chiqish sohasida monopoliya bekor qilinib, sohada raqobat muhiti yaratiladi.

Kelgusida tartibga solinmagan piyodalar o'tish joylaridagi yo'l belgilari va yo'l chiziqlari yorug'lik qaytaruvchi, yaxshi ko'rinadigan materiallardan tayyorlanadi.

Joylarga haydovchilar tomonidan piyodalarga yo'l

bermaslik bo'yicha qoidabuzarliklarni qayd etuvchi maxsus videokameralar o'rnatiladi. Tartibga solinmagan hamda xavfli yo'lga kesib o'tish joylarida piyodalar tomonidan boshqariladigan svetoforlar o'rnatish ko'paytiriladi.

- Haydovchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish uchun nimalar qilish kerak?

- Haydovchilarni tayyorlash, o'qitish amaliyoti, yaratilgan sharoit, nazorat tizimi, mavjud imkoniyatlar joylarga chiqqan holda o'rganiladi.

Ochiq aytish kerakki, ahvol achenarli holatda. Xususan, hozirda faoliyat yuritayotgan 1 ming 348 ta o'quv tashkilotining 745 tasida o'z binosi, 1 ming 277 tasida o'z o'quv avtodromi yo'q. Ularning 41 foizida o'quv-mashq avtomobilidan ijara asosida foydalaniladi.

Shuningdek, haydovchilarni o'qitish maktablarida "nosog'lom raqobat" vujudga kelgan. Gapning to'g'risini aytganda, ayrim avtomaktablarning maqsadi sifatli ta'lim berish emas, balki mo'may daromad topishga qaratilgan.

Davlatimiz rahbarining ko'rsatmalaridan kelib chiqib, endilikda haydovchilarni tayyorlash, imtihon qilish va ularning malakasini oshirish tizimi tubdan takomillashtiriladi. Ta'lim sifati qat'iy nazorat qilinadi.

Haydovchilarni tayyorlovchi ta'lim sub'ektlari va imtihon markazlariga bo'lgan talab hamda mezonlar belgilanadi. Ularning bu turdagi faoliyatni amalga oshirishi uchun litsenziya Ichki ishlar vazirligi tomonidan beriladi.

Avtomaktablarning o'quv metodologiyasi, nazariy va amaliy o'quv dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, o'qituvchi va murabbiylarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga esa IIV Akademiyasi mas'ul etib belgilanadi.

Bundan buyon haydovchilar to'g'risidagi ma'lumotlarning elektron bazasi yuritiladi. Shuningdek, har bir haydovchi hamda avtomaktablar reytingi yuritiladi.

- Yo'l harakatini tashkil etish va nazorat qilish tizimini raqamlashtirish bo'yicha qo'yilgan topshiriq ijrosi qanday amalga oshiriladi?

- Ha, Yurtboshimiz bu og'riqli masalaga bejiz alohida o'xtalmadi. Respublikamizdagi 2 ming 752 ta chorrahaning atigi 145 tasi yoki 5 foizi zamonaviy kameralar bilan jihozlangan, xolos.

Bu esa yo'l harakatini tashkil etish va nazorat qilib borish, chorrahalaridagi tirbandliklar to'g'risida ma'lumotlarni olish hamda bartaraf etish imkoniyatlarini cheklab qo'yimoqda. Shuning uchun ushbu sohada eng ilg'or hisoblangan Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy, Singapur, Koreya kabi davlatlar tajribasi o'rganib chiqildi.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, Toshkent shahri va viloyat



markazlarining yo'l uchastkalari va chorrahalarini 1 ming 491 "aqlli" svetofor, 4 ming 473 intellektual kamera, tezlikni nazorat qiluvchi 720 qurilma bilan jihozlash zarur.

Mazkur vositalar hokimliklar yordamida xarid qilinib o'rnatilgan taqdirda, xuddi Toshkent shahridagi kabi "Avtomobil harakatini nazorat qilish va kuzatib borishning yagona markazlashgan va kompyuterlashtirilgan boshqaruv tizimi" har bir viloyatda tashkil etilib, ular integratsiya qilinadi.

- Sohaga oid qonun hujjatlari ham takomillashtiriladimi?

- Albatta, qonunchilik xalqaro standartlar asosida takomillashtiriladi. Bunda xalqaro tashkilotlar va ekspertlar, deputatlar, shuningdek, aholining bu boradagi taklif va tavsiyalari inobatga olinadi.

Jumladan, transport vositasini mast holatda boshqarganlik va inson hayotiga xavf solishi mumkin bo'lgan boshqa qoidabuzarliklar uchun javobgarlik choralari ilg'or xalqaro tajriba asosida qayta ko'rib chiqiladi.

Transport vositasini qasddan tartibsiz boshqarish, o'z boshimchalik bilan harakatlanish qatnashchilarini to'xtatishga majbur qilish orqali xavfni yuzaga keltirganlik ("yo'l bezoriligi") uchun javobgarlik belgilanadi.

O'qitmasdan va o'rgatmasdan haydovchilik guvohnomasini berganlik uchun ham jazo choralari ko'zda tutiladi.

Sir emaski, keyingi paytlarda yo'l-patrol xizmati xodimlarining xizmat faoliyatiga noqonuniy aralashish, to'stinlik qilish, hatto qarshilik ko'rsatish holatlari kuzatilayotgan edi. Endi bunday holatlarning oldini olish choralari ko'riladi. Soha vakillarining shaxsiy himoya va faol mudofaa vositalaridan foydalinishi borasidagi huquqlari kengaytiriladi.

Haydovchilarga yo'l harakati qoidabuzarligi uchun jarima ballarini hisoblash tizimi joriy etiladi. Agar haydovchi tomonidan 12 oy davomida sodir etilgan qoidabuzarliklar uchun hisoblangan jarima ballarining umumiy miqdori 12 balldan oshsa, u transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilinadi. Qoidabuzarlik sodir etmagan haydovchilarga esa bonus ballari hisoblab boriladi.

Oldimizda turgan yana bir dolzarb vazifa - xalqaro standartlardan kelib chiqib, Yo'l harakati qoidalarining yangi tahririni ishlab chiqishdan iborat. Unda, jumladan, Toshkent shahri va yirik shaharlardagi

markaziy ko'chalarda transport vositalari harakatlanishining tezlik cheklovlari qayta ko'rib chiqiladi.

2022-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha hududiy 14 ta "yo'l xaritasi" ishlab chiqiladi.

Ularda yo'l infratuzilmasidagi mavjud muammolar va "avariya o'choqlari" tahlil qilingan holda, yo'l-transport hodisalarining oldini olish bo'yicha tuman (shahar)lar kesimidagi manzillik chorra-tadbirlar belgilanadi.

Avtomobil yo'llarida transport harakatini tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish faoliyati raqamlashtiriladi. Zamonaviy o'quv xonalari, nazariy va amaliy o'quv inventarlari hamda to'laqonli o'quv-mashq bazasiga ega bo'lgan avtomaktab va imtihon markazlari faoliyati yo'lga qo'yiladi. Viloyat markazlaridagi, keyinchalik boshqa shahar (tuman) markazlaridagi serqatnov chorrahalar raqamli boshqaruvga o'tkaziladi.

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar har oy Oliy Majlis palatalarida muhokamadan o'tkazib boriladi. Ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan foydalangan holda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasida keng qamrovli targ'ibot-tashviqot ishlari yanada jadalashtiriladi.

Tizimni o'z shaxsiy manfaatlarini xalq manfaatlaridan ustun qo'yayotgan nopok xodimlardan tozalash ishlari bundan buyon ham davom ettiriladi.

Soha xodimlari faoliyatiga sun'iy intellektga asoslangan "inson omili" ta'sirini cheklovchi raqamli texnologiyalarning joriy etilishi xodimlar tomonidan fuqarolar bilan manfaatli muloqotga kirishish holatlariga barham beradi.

Shuningdek, yo'l-patrol xizmati bo'yicha fuqarolar orasida so'rovlar o'tkazib boriladi, jamoatchilik fikri asosida tegishli xulosalar qilinadi.

Bir so'z bilan aytganda, Yurtboshimiz qo'ygan vazifalar ijrosi qattiq nazoratga olinadi. Bundan buyon ham Prezidentimiz va xalqimizning ishonchini oqlash uchun xodimlarning ishga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirishga, ular yangicha tizim asosida, o'z kasbiga vijdonan yondashib xizmat qilishlarini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratiladi.

**O'ZA muxbiri
Norgul ABDURAIMOVA
suhbatlashdi.**

KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH:

DASTUR IJROSI VA MUAMMO YECHIMLARI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Masalan, 2018-yildan boshlab hududlarda aholini tadbirkorlikka jalb qilish va shu orqali yangi ish o'rinlari yaratish maqsadida «Har bir oila – tadbirkor» dasturi joriy etildi.

2018-2021-yillarda oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida qariyb bir million oilaga 23,7 trillion so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratilgani bu ishlar ko'lamini kengayotgani va uning natijasi samarali ekanidan dalolat beradi. 2018-2021-yillarda «Yoshlar – kelajagimiz» dasturi hamda boshqa oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 25 ming nafar yoshga berilgan 1,8 trillion so'm miqdoridagi imtiyozli kreditlar ularning biznes loyihalarini ro'yobga chiqarish va daromad manbalarini yaratish uchun dastlabki kapital sifatida xizmat qilgan.

Koronakrizis davrida «Temir daftar», «Ayollar daftar», «Yoshlar daftar» kabi manzilli dasturlar aholining kambag'al qatlamini qo'llab-quvvatlashda muhim choralar bo'ldi, deyish mumkin. Xususan, 2021-yil 1 noyabr holatiga, «Ayollar daftar»ga kiritilgan 65,2 ming nafar xotin-qizlarga 973,6 milliard so'm, «Yoshlar daftar»ga kiritilgan 56,6 ming nafar yoshlarga 1,3 trillion so'm, «Temir daftar»ga kiritilgan 5,7 ming nafar

fuqaroga 94,4 milliard so'm miqdorida imtiyozli kreditlar yo'naltirilgan.

Hukumat qaroriga muvofiq, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida «Mehr daftar» joriy qilingani ham bu boradagi tizimli ishlar bilan mushtarakdir. Unga ko'ra, bolalar ushbu daftarga tuman yoki shahar hokimi qarori asosida kiritiladi va undan 25 yoshga to'lganda chiqariladi. Bunda daftardan chiqarilayotgan shaxslarning bandligi ta'minlangan va uy-joyi mavjud bo'lishi shart.

Kambag'allikni qisqartirish borasida bir mamlakat tajribasini boshqa mamlakatda aynan qo'llash imkoniyati, ya'ni yagona formulaning mavjud emasligi O'zbekistonda ham xalqaro tajribani inobatga olgan holda, aholining ehtiyojmand qismini qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos tizimini yaratishni taqozo etdi. Xususan, dastlab 2018-yildan mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlikni tizimli amalga oshirish boshlangan bo'lsa, ushbu tizim va uni qo'llash mexanizmlari o'tgan davr mobaynida amaliyotda yuzaga kelgan kamchiliklar hamda muammolarni bartaraf etish orqali bosqichma-bosqich takomillashtirib borildi.

Davlat dasturlari ijrosi bo'yicha muammolar bormi? Ha, albatta, bu borada muammolarga duch kelayapmiz. Buni

men quyidagi tahlil asosida izohlayman.

Dastlabki bosqichda dastur doirasida kredit mablag'lari hisobidan faqatgina hududiy komissiyalar tomonidan tasdiqlanadigan ta'minotchilardan mahsulot sotib olish belgilangan edi. Taklif cheklanganligi, raqobatning mavjud emasligi sharoitida talabning oshishi, dasturlar doirasida xarid qilinadigan ayrim tovarlar narxining bozor qiymatidan yuqori sotilishi, sifati pastligi kabi bir qator muammolarni yuzaga keltirdi. Bu, o'z navbatida, dastur doirasida ajratilayotgan imtiyozli kreditlar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Ikkinchi bosqichda mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida hududiy komissiyalar tomonidan ta'minotchilarni belgilash amaliyoti bekor qilindi hamda imtiyozli kreditlar tovarlar shartnoma asosida kelishilgan narxda yetkazib berilgandan va loyiha egasi undan qanoatlanish hosil qilganidan so'ng mahsulot yetkazib beruvchining hisobraqamiga o'tkazib berilishi belgilandi. Mazkur bosqichda ichki bozorda yuzaga kelgan ortiqcha bosimni kamaytirish maqsadida naslli chorva mollarini faqat ularni import qiluvchi ta'minotchilardan sotib olish tartibi joriy etildi.

Oilaviy tadbirkorlik dasturlari bo'yicha mahsulot

sotib olish, kredit ajratish va undan foydalanishda inson omili, ta'minotchilar o'rtasida raqobatning pastligi mavjud. Imtiyozli kreditlarning maqsadsiz yoki noo'rin ishlatilishi kabi muammolarga duch kelayapmiz. Bu kabi muammolar esa dasturning samarali bo'lishiga salbiy ta'sir etadi. Shundan kelib chiqib, bunday muammolarning saqlanib qolayotganligi dastur samaradorligini yanada oshirish bo'yicha muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qildi.

Uchinchi bosqichda asosiy e'tibor oilaviy tadbirkorlik dasturlari bo'yicha kredit ajratishda banklardagi inson omilini yo'qotish, shaffoflikni oshirishga qaratildi. Xususan, oilaviy tadbirkorlik dasturlari bo'yicha «Yagona elektron platforma» (www.oilakredit.uz) joriy etilib, kreditlar bo'yicha ariza qabul qilish jarayoni to'liq raqamlashtirildi.

Bugungi kunda mazkur platforma samaradorligini yanada oshirish maqsadida kredit arizalarini barcha bosqichlarda onlayn ko'rib chiqish hamda ajratilgan kreditlar hisobiga tovar va xizmatlarni bozor tamoyillari asosida erkin sotib olish yoki sotish Yagona elektron platformada yaratilgan «marketpleys» tizimi yordamida amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

Bu, o'z navbatida, ta'minotchilar o'rtasida raqobatni oshirish va

imtiyozli kreditlar hisobiga sotib olinadigan tovar va xizmatlar narxini pasaytirish, yetishtirilgan mahsulotlarini respublikaning istalgan hududida sotish imkonini beradi.

Bundan tashqari, imtiyozli kreditlardan yanada samarali foydalanish orqali aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish maqsadida har bir mahallada hokim yordamchisi lavozimi joriy etildi. Hokim yordamchisi lavozimida faoliyat ko'rsatayotgan xodim oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida kredit, subsidiyalar va boshqa moliyaviy yordamlar ajratish uchun xulosa berish vakolatiga ega.

Kelgusida ushbu tizimni takomillashtirib borib, tadbirkorlikni kreditlash jarayonlari to'liq bozor asoslariga o'tiladi. Bunda aniq yo'nalishlar bo'yicha ajratilgan kreditlar foizlarining bir qismini davlat tomonidan kompensatsiya qilib berish mexanizmidan foydalanish imkoniyati saqlanib qolinadi. Albatta, bu borada har bir ajratilayotgan kompensatsiyaning maqsadli ishlatilishi va shaffofligini, eng muhimi, samaradorligini oshirish bo'yicha choralar kuchaytiriladi.

O'ZA muxbiri
Nasiba ZIYODULLAYEVA
yozib oldi.



AHOLI ASOSAN QUYIDAGI MAQSADLARDA RO'YXATGA OLINADI:

- aholining sog'lig'ini mustahkamlash;
- xotin-qizlar va bolalar yashash shart-sharoitlarini yaxshilash;
- oilalarga yordam ko'rsatish

bo'yicha choralarni ishlab chiqish maqsadida aholi tarkibini, mamlakatdagi demografik o'zgarishlarni baholashga doir ma'lumotlar bazasini kengaytirish;

AHOLINI RO'YXATGA OLISHDAN MAQSAD NIMA?

– shahar va boshqa aholi punktlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning, mehnat resurslarini joylashtirish hamda ulardan foydalanishning uzoq, o'rta va qisqa muddatli prognoz va dasturlarini tayyorlash;

– aholini ro'yxatga olishlar oralig'idagi davrda aholi soni va tarkibining joriy hisobini, hisob-kitoblarini hamda prognozlarini amalga oshirish;

– ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish.

AHOLINI RO'YXATGA OLISHNING ASOSIY PRINSIPLARI QUYIDAGILARDAN IBORAT:

- ▶ davriylik;
- ▶ umumiylik va bir paytdalik;
- ▶ ro'yxatga olishning yakka tartibdaligi;
- ▶ shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligi;
- ▶ aholini ro'yxatga olishni boshqarishning markazlashtirilgani.

Bobur MEYLIYEV,
Yakkasaroy tumani statistika
bo'lim boshlig'i

TA'LIMNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MODELINI

Jahon banki hisob-kitoblariga ko'ra, o'tish davridagi mamlakatlarda o'sishning 64 foizi inson kapitali sifatida, ya'ni aholi tomonidan ishlab chiqarish jarayoni va kundalik hayotda samarali yechimlarni topish uchun to'plangan bilim va ko'nikmalarga bog'liq. Yaponiya, Germaniya kabi mamlakatlarda inson kapitalining ulushi milliy boylikning 80 foizini tashkil qiladi. Iqtisodiy farovonlik esa yangi bilimlarni egallash va uni hayotga tatbiq qilishga bog'liq.

Ta'limning bunday muhim o'rin kasb etishi davlatning ushbu sohaga doimiy e'tibori va undagi ishtirokini ta'minlaydi. Shu bilan birga, hech bir davlat, xatto eng rivojlangan va ilg'or davlat ham bu sohaning barcha vazifalarini o'z zimmasida saqlay olmasligi tobora oydinlashmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-noyabrda "2022-2023-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari dasturini ishlab chiqish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishida davlat boshqaruvi tizimi samaradorligini oshirish, faoliyatini natijadorlikka qaratish va "mobil boshqaruv apparati"ni yaratish, xorijiy tajribani tahlil qilish zarurati, xorijiy mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va aniqlash kabi masalalar ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan. Bu ta'lim tizimini boshqarishning eng samarali modelini izlashga turtki bo'ldi.

Ta'lim tizimida samarali modelni izlash uchun AQSh, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Latviya va Turkiya kabi davlatlar tajribasi o'rganib chiqildi.

Quyida ta'lim sohasida davlat boshqaruvi bo'yicha ilg'or xorijiy tajriba va O'zbekiston Respublikasida mobil boshqaruv apparatini shakllantirish, ta'lim sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish uchun qo'llanishi mumkin bo'lgan zamonaviy ta'lim dasturlarini o'rganish natijalarini taqdim etamiz.

Ta'lim sohasida davlat boshqaruvi ko'ra:

Dunyoning aksariyat yetakchi mamlakatlarida (AQSh, Janubiy Koreya, Singapur, Turkiya) deyarli butun soha (maktabgacha,

umumiy o'rta, kasb-hunar va oliy ta'lim) yagona ta'lim vazirligi tomonidan muvofiqlashtiriladi va boshqariladi. Shu bilan birga, Janubiy Koreya va Turkiya oliy ta'lim sohasida ta'lim vazirligi faqat o'quv-reja va imtihon qoidalarini belgilaydi, boshqaruv sohasidagi boshqa masalalar bilan oliy ta'lim muassasalari rahbarlaridan tuzilgan Oliy ta'lim Kengashi shug'ullanadi;

Vazirlikda ta'lim bilan bir qatorda boshqa sohalarini ham qamrab oladigan amaliyotlar mavjud bo'lib, bu borada Yaponiya amaliyoti alohida e'tiborga loyiqdir. Chunki vazirlik ta'lim bilan bir qatorda madaniyat, sport, fan va innovatsiya sohasini (Ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiya vazirligi), Fransiya ta'lim bilan bir qatorda yoshlar va sport siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish vazifalari (Milliy ta'lim, yoshlar va sport vazirligi), Qozog'iston va Latviyada – fan va innovatsiyalar (Ta'lim va ilmfan vazirligi) sohalarini ham qamrab oladi. Boshqa mamlakatlarda fan va innovatsiya bilan boshqa bo'limlar shug'ullanadi. Masalan, AQShda – Fan, texnologiya va innovatsiyalar davlat departamenti, Janubiy Koreyada – Fan va axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Turkiyada – Sanoat va texnologiyalar vazirligi;

Xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim turlari bo'yicha bir nechta vazirliklar tomonidan alohida ta'lim sohasini davlat tomonidan tartibga solish amaliyoti mavjud emas. Bundan ta'lim vazirliklari negizida ikkita vazirlik, xususan, maktabgacha, umumiy o'rta va kasb-hunar ta'limi va zirligi hamda fan va innovatsiyalar bilan bir qatorda oliy ta'lim faoliyatini muvofiqlashtiruvchi vazirlik tashkil etgan



Fransiya, Italiya (2021-yildan) va Rossiya (2018-yildan) kabi davlatlar mustasno. Universitetlar faoliyatida ilmiy hay'atning roli oshishi, o'z navbatida, fan va ilmiy-tadqiqot faoliyatini muvofiqlashtirish uchun kadrlar tayyorlashdan tortib, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlarining faoliyati sifatini baholash mexanizmlariga bo'lgan sohada ularning ta'lim va fan o'rtasida hamkorlikning zarurligini belgilab berishdagi hissasini oshirish ushbu integratsiyaning sababi hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim dasturlariga ko'ra:

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ta'lim sohasini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari uzluksiz ta'lim tizimini (hayot davomida ta'lim) takomillashtirishga qaratilgan. Bu yashash davomiyligida faol davrning oshishi va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi tufayli kasblarning o'zgarishi (qayta yo'naltirilishi) bilan bog'liq.

Ma'lumot uchun: uzluksiz ta'lim (ingl. lifelong learning) bu – davlat va jamoat institutlari tizimidan foydalanish orqali hamda shaxs va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda shaxsning ta'lim salohiyatini butun umr davomida oshirish jarayonidir.

Shu bilan birga, uzluksiz ta'lim faqat malaka oshirish kurslarini anglatib qolmay, u turli shakllarda, masalan, kasb-hunar yoki oliy ta'limda ham amalga oshirilishi mumkin. Ushbu dasturlar kollej va universitetlarda, o'quv markazlarida yoki

ish joyida o'tkazilishi mumkin. Uzluksiz ta'lim bosqichlarini muvaffaqiyatli yakunlash natijasida diplom yoki muvofiqlik sertifikatini beriladi.

O'z navbatida, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish ta'lim tizimining shaxs, jamiyat va iqtisodiyotning jadal o'zgaruvchan ehtiyojlariga nisbatan munosabatini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Bundan tashqari, ko'pchilik xalqaro mutaxassislar fikriga ko'ra, talab etiladigan mutaxassislarni tayyorlash mamlakatning innovatsion rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, ta'lim insonning maktabda, kasb-hunar kollejida yoki universitetda o'qishi bilan yakunlanmay, balki uzluksiz, jamiyat hayoti bilan bog'liq bo'ladi. Uzluksiz ta'limga misol tariqasida kompyuter mutaxassisiga kasb-hunar kolleji yoki oliy o'quv yurtida kompyuter dizayni yoki zamonaviy kompyuter tillari bo'yicha kursda qatnashish, ta'limni tamomlagandan so'ng esa hujjat (sertifikat yoki diplom) olish imkoniyatlarini kiritish mumkin.

Ushbu dasturni amalga oshirish va aholini keng qamrab olish maqsadida 2021-yilda Janubiy Koreya ta'lim vazirligi tuzilmasida yoshi kattalar uchun uzluksiz ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish va uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'linma (Uzluksiz ta'lim byurosi) tashkil etildi.

Singapurda ushbu tashabbusni SkillsFuture Singapur dasturi (Singapurning kelajak-

ka moslashuvi) orqali amalga oshirishga qaror qilindi. Dastur yangi ko'nikmalarni joriy qilish, kelajakni yaratadigan insonlarni shakllantirish uchun mo'ljallangan.

SkillsFuture tashabbusi 2015-yilda singapurlik aholiga uzluksiz ta'lim olish va ko'nikmalarini oshirishga imkon bergan holda, Singapur iqtisodiy rivojlanishining keyingi bosqichini qo'llab-quvvatlash maqsadida taqdim etilgan. SkillsFuture singapurlik aholining kelib chiqishi va yoshidan qat'iy nazar, barcha imkoniyatlarini ko'rsatishi uchun mo'ljallangan. Dastur SkillsFuture Credit va SkillsFuture Earn and Learn kabi bir nechta asosiy tashabbuslarni o'z ichiga oladi.

SkillsFuture dasturini amalga oshirishni muvofiqlashtirish uchun Singapurda hukumat, sanoat, kasaba uyushmalari va ta'lim muassasalari vakillaridan iborat Bosh vazir o'rinbosari va moliya vaziri raisligida Kelajak iqtisodiyoti Kengashi (FEC) tuzildi.

Jamiyatda ro'y berayotgan jadal ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimlari faoliyatining yangi parametrlarini belgilab, ayni paytda ular oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Boshqaruv jarayonini to'g'ridan-to'g'ri optimallashtirish, boshqarishning yangi mexanizmlarini joriy etish orqali ratsionalizatsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

– ta'lim sohasida davlat boshqaruvi bo'yicha, Fransiya, Italiya va Rossiyaning ta'lim, fan va innovatsiyalarning integratsiyalashuvi va muvofiqlashtirish masalalari bo'yicha amaliyoti O'zbekiston sharoitida eng maqbul hisoblanadi, chunki ilmiy kadrlar tayyorlashda universitetlarning ulushi 77 foizni tashkil etadi, ilmiy-tadqiqot institutlari esa mutaxassislarining atigi 23 foizini tayyorlaydi;

– zamonaviy ta'lim dasturlariga ko'ra, uzluksiz ta'lim dasturini joriy etish inson kapitali darajasini oshirish va mehnat bozorida talab qilinadigan kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish orqali O'zbekistonga qo'shimcha investitsiyalar olib keladi.

Jamshid SHARIPOV,
Avazbek XOLBEKOV,
"Taraqqiyot strategiyasi"
markazi ekspertlari

KO'RIK-TANLOV

ZUKKO KITOBXONLAR

Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi 205-maktabda "Zukko kitobxon" ko'rik-tanlovining maktab bosqichi o'tkazildi.



O'quvchi yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, kitob o'qishga qiziqishlarini oshirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilning 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida 3-4-sinf o'quvchilari o'rtasida "Kitob bilimlar xazinasi" shiori ostida "Zukko kitobxon" tanlovi bo'lib o'tdi.

Tadbirni maktab rahbari Nargiza Rahimova ochib berar ekan, yurtimizda kitobxonlik madaniyatini oshirish, yosh kitobxonlarni rag'batlantirish borasidagi ishlarga alohida to'xtaldi.



Tanlovda jamoalar 3 ta – tanishtiruv; ijodiy matn tuzish; ertak asosida sahna ko'rinishi shartlari asosida bellashdi. Yakuniy natijalarga ko'ra, 1-o'rin 3-"V" sinfga, 2-o'rin 3-"B" sinfga, 3-o'rin 4-"B" sinfga nasib etdi.

G'olib o'quvchilar faxriy yorliq va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Dilafro'z CHORIYEVA,
shu maktabning ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi



ФЕСТИВАЛЬ

С ОТКРЫТОЙ ДУШОЙ

В социальных сетях регулярно обновляется информация о марафоне патриотических молодежных фестивалей, которые охватили всю республику

Очередное подобное мероприятие состоялось в махалле «Бегубор» Юнусабадского района столицы. Организаторами выступили хокимият, районные отделения культуры, Агентства по делам молодежи, Центра поддержки махалли и семьи. Местом проведения определили сход граждан, продемонстрировавший особую активность в работе с подрастающим поколением.

«Бегубор» означает «С открытой душой». Вполне оправданное название и для фестиваля, объединившего жителей разных возрастов, хотя, пожалуй, молодежь преобладала. Были среди участников такие, кто пришел специально (к примеру, юноши-допризывники) посмотреть на выpravku и искусство военнослужащих. В публику вливались и случайные прохожие, которых заинтересовало происходящее.

Где еще мальчишкам удастся поделиться впечатлениями с офицерами, оценить игру военного духового оркестра, вблизи рассмотреть пожарную машину, похвалиться ловкости спортсменов, нанеся точные удары, полюбоваться на синхронность движений взвода почетного караула?! Пространство перед зданием махаллинского комитета превратилось

в съемочную площадку: телефоны вытащили и стар и млад.

А потом появились они, красавицы, – рыжая и вороная. Многим захотелось почувствовать себя наездником-чавандозом, и около лошадей выстроилась очередь. Кто-то из детей просто разговаривал с животными.

Председатель схода граждан «Бегубор» Лайло Ахмедова успевала всюду: обнимала радостных

на нее особое впечатление произвело выступление ребят из секции хапкидо:

– Все спортсмены ловкие, сильные. Девочка же и мальчики из 86-й школы близки мне по возрасту. Нашли занятие по душе. У них, наверное, ни минуты зря не пропадет. Чтобы так владеть своим телом, нужно упорно тренироваться.

А еще мне понравился ведущий. Хотелось бы научиться так говорить: правильно, эмоционально, красиво. И стихи о Родине в его исполнении дошли до самого сердца.

Домком Ирина Присяжнюк сопровождала внука на самокате. Маленькая

Аиша быстро освоилась среди других детей, а потом весело отплясывала под песни эстрадных артистов в организованном бабушкой хороводе.

Зрители стали не пассивными созерцателями, а участниками фестиваля: было на что посмотреть, что обсудить, о чем задуматься. Наверняка главный вопрос задал себе каждый: «Что я делаю для страны, какое дарование использую на благо Родины?»

Мавлюда ПАЛВАНОВА
Фото автора

Где еще мальчишкам удастся поделиться впечатлениями с офицерами, оценить игру военного духового оркестра, похвалиться ловкости спортсменов, полюбоваться на синхронность движений взвода почетного караула?!

девчонок, которые выражали эмоции коротким словом «класс!» или «супер!», подбадривала мальчугана на лошади, танцевала под веселые мелодии. Для Сохибы Абдусалимовой, махаллинского етакчи, это первое мероприятие большого охвата – и девушка нуждалась в поддержке. Ей пришлось перенести сражение знатоков в клубе «Заковат» на другой день: интеллектуалов тоже увлекла атмосфера патриотического праздника с участием военнослужащих.

Восьмиклассница из школы №288 Нафосат Ёдгорова говорит, что



Новости

Знай наших!

Учащийся из Узбекистана Максадбек Файзуллаев получил грант в размере 236 тысяч долларов на обучение в Нью-Йоркском университете Шанхай.



Максадбек родился в Чартаке, учится в 11-м классе Президентской школы в Ташкенте. Он также принят в 27 зарубежных вузов, входящих в топ-300. Университет, который выбрал молодой человек, занимает 26-е место во всемирно известном рейтинге Times Higher Education.

М.Файзуллаев – автор проекта по созданию первой узбекской версии киберфутбола, многократный победитель математических олимпиад. В 2017-м его признали «Лучшим учеником года по математике».

Соревнуется молодежь

В махалле «Новшахар» Ангорского района Сурхандарьинской области прошли молодежные соревнования на Кубок хокима области.

Юноши и девушки участвовали в интеллектуальной игре «Заковат», конкурсе «Молодой книголюб», состязаниях по футболу и волейболу. Также организованы выставка боевой техники и вооружения, показательные выступления почетного караула. Прозвучали патриотические песни и музыка в исполнении военного оркестра. Командам-победителям вручили памятные подарки и денежные призы.

Фестивали и другие культурно-просветительские мероприятия проводятся в рамках реализации постановления «О мерах по кардинальному совершенствованию системы работы с молодежью в махаллях». Молодежные лидеры осуществляют деятельность в 721 махалле области.

И хобби, и профессия

В «Творческой мастерской», созданной при Республиканском центре социальной адаптации детей, открылись новые кружки для ребят с особыми нуждами.



Проект реализуется при поддержке ассоциации «Хунарманд». В мастерской под руководством опытных ремесленников налажена деятельность кружков по таким направлениям, как гончарное искусство, рисование, вышивка, изготовление национальных украшений, ткачество.

– Вот уже семь лет занимаюсь ремесленничеством, – говорит преподаватель Феруза Курбанова. – Обучаю детей изготавливать национальные украшения из металла. Ребята не только осваивают полезное дело, но и становятся увереннее, получают психологическую поддержку.

Кроме того, такие занятия способствуют адаптации детей с инвалидностью в социуме, развивают мелкую моторику, устраняют дефицит внимания и помогают справляться с гиперактивностью.

Английский – это интересно!

В книжном комплексе «Китоб олами» в Ташкенте состоялась презентация книги молодой художницы Мохларойим Ахмедовой Start English. Мероприятие организовано Агентством по делам молодежи совместно с Союзом молодежи Узбекистана.

Как отметила автор, книга призвана заинтересовать детей изучением английского языка. Издание предназначено для ребят от трех до семи лет: по мнению психологов, именно в этом возрасте мальчики и девочки легко запоминают стихи, овладевают иностранными языками и проявляют интерес к различным предметам.

В Start English сделан акцент на красочных картинках, которые так привлекают малышей. В книге много стихов, творческих заданий, благодаря которым процесс изучения языка превращается в веселую игру.





ДОРОГАМИ ДОБРОТЫ

Они везде: сдают кровь и скрашивают будни онкологических больных, делают уборку в квартирах одиноких пенсионеров и устраивают концерты в школах-интернатах, оформляют праздничные площадки и организуют дежурство на многолюдных мероприятиях... Они – волонтеры.

Сегодня о людях бесконечной доброты мы беседуем с руководителем Ассоциации волонтеров Узбекистана Ширин АБИДОВОЙ.

Задав вопрос: «Что сделано ассоциацией, которой чуть больше года?» – получила подробный письменный отчет. В него вошли тренинги, выступления, телепередачи и видеоматериалы, меморандумы о сотрудничестве с государственными и общественными организациями Узбекистана, работа в учебных лагерях, создание онлайн-площадки, организация «школ волонтеров», выпуск методического пособия, благие дела и многое другое. Пункты, цифры, названия проектов... Информация солидного объема, поэтому перевели наше общение в разговор о том пути, который проходят юноши и девушки, мечтающие сделать мир счастливее.

– Сколько волонтеров в Узбекистане? В каких регионах юноши и девушки особенно активны?

– Тридцать четыре миллиона. Именно так. Другое дело, что сами они не все об этом знают. Кто такой волонтер? Человек, который в свободное время отдает свои знания, навыки, ресурсы, силы на благие дела. Именно в этом духе воспитыва-

ется народ Узбекистана с детства. Принципы, принятые на международном волонтерской площадке, у нас в крови.

Наиболее активны волонтеры Намангана, Кашкадарьи, Каракалпакстана, Андижана. Ташкент лидирует. Надеемся, другие регионы опередят столицу в гонке за «савоб» – благими делами.

– Каков «портрет» молодого волонтера Узбекистана? Какими качествами он должен обладать?

– Это интересная личность, у которой горят глаза. Возраст не имеет значения. Хороший собеседник, генератор идей, откликается на добрые инициативы. Готов внедряться в любые сферы, четко знает, что именно ему интересно. Терпеливый, позитивный, общительный, внимательный, улыбочивый. Находится там, где это особенно необходимо, умеет сочувствовать. Увидев у кого-то печальные глаза, не пройдет мимо – поддержит делом или добрым словом.

Он учится в школе, в колледже или университете. Может, собирает-

ся поступать в вуз, однако, работая над собой, находит время для благих дел. Понимает, что в волонтерстве приобретает полезные навыки, развивается, набирается опыта. Он волонтерит, потому что ему нравится это движение, эта сумасшедшая энергетика, объединяющая единомышленников. Нравится быть частью чего-то большого, глобального, нравится быть полезным, видеть благодарность в глазах людей.

– Особенно активно волонтерство в республике стало развиваться в период пандемии. Как проявляла себя молодежь в это непростое время?

– У серьезных проблем есть положительное качество – сплочение. Пандемия показала, насколько открыт и отзывчив народ Узбекистана. Карантин сплотил более десяти тысяч юношей и девушек. Это неофи-

циальные граждане не паникуют, а занимаются спортом, пересмотрели режим дня и питания, отдают

причины, когда уходят на мероприятие, находят более «важные» (с точки зрения домочадцев) дела. Объясняю ребятам, что обманывать – нехорошо. А окружающих надо убеждать. Во время локдауна страхи были закреплены разумными опасениями (сам заразишься и нас заразишь!). Именно поэтому в Законе «О волонтерской деятельности» написано: добровольцем может быть человек старше 18 лет. Или 16, если это не вредит его здоровью. Ситуация с пандемией показала, как важно организовать здоровое пространство по защите волонтеров. Если кто-то из ребят заболел, им выдавались страховые полисы. Негативная сторона – на родственников это не распространялось. А некоторые наши ребята и сами заразились, и принесли болезнь в семью. Время было тяжелое. К счастью, сейчас со-

ПОМОГАЯ ДРУ

циальная цифра, потому что только в Ташкенте объединилось более четырех тысяч представителей молодежи и инициативных групп.

Благодаря правильному подходу на платформе Узэкспоцентра, в точке, где государство со своей стороны помогало административно (предоставило место, обеспечило безопасность), собирались те, кто не мог проявлять равнодушие. Они делали все, чтобы люди не остались голодными, больные – без лекарств. Малыши, особенно из многодетных семей, получили любовь и внимание, продукты питания, медикаменты. Была инициирована отдельная группа в основном из числа медиков для службы скорой помощи. Ребята развозили кислородные концентраторы. К слову, из-за пределов страны соотечественники отправляли огромные суммы, чтобы закупить столь необходимые оксигенаторы...

Во время карантина волонтеры придерживались трех основных правил. Первое – не навредить себе и своим близким. К сожалению, были случаи, когда ребята забывали о мерах предосторожности. Второе – адаптивность. Корректировка вносится, когда, образно говоря, определенное время проходишь «в обуви того», кому помогаешь. Третье – обнуление. Освобождаясь от прошлых стереотипов, приходишь к человеку на помощь – думаешь только о нем. Работаешь осознанно.

– С какими проблемами сталкивались молодые волонтеры, помогающие людям во время локдауна?

– Серьезная проблема – непонимание окружающих, причем даже самых близких людей. Зачастую родители обращаются к детям, ступившим на путь волонтерства: «Тебе что, делать нечего?! Есть свободное время – книгу почитай!» Проблема коренится в сознании. Уже мировая практика доказала, что социальная активность приносит отдачу. В виде опыта, который не получишь из литературы, на занятиях в школе, в институте. Волонтерская практика – идеальный тренажер для формирования soft skills. Это навыки, необходимые для решения жизненных задач: коммуникация, работа в команде, поведение в конфликтной ситуации. И никакой Дейл Карнеги или Джон Кехо не научит, как именно поступить, если нет общения в социуме...

На самом деле через помощь другим мы помогаем самим себе. К сожалению, не каждый это понимает. Случалось, активисты признавались: им приходится придумывать

через zoom-площадку. Пригласили представителей системы здравоохранения, а также общественной организации, которая разработала специальную методику дыхания и мытья рук. Донесли информацию до волонтеров, а они проводили и проводят соответствующие мероприятия в образовательных учреждениях, махаллях.



предпочтение активному отдыху. Положительные изменения видим во всем мире.

– Сейчас идет на спад волна заболеваний «омикроном». Реализовались ли на ее пике какие-либо волонтерские проекты, направленные на помощь нуждающимся?

– Душа кричит оттого, что люди относятся к себе с недостаточным вниманием. Помимо Ассоциации волонтеров, работаю психологом

в республиканском центре «Mehri qo'llag». Те, кто перенес ковид, родители детей с инвалидностью воспринимают мир по-другому. Они еще больше начинают ценить жизнь.

Что делают волонтеры в этом направлении? Несколько месяцев назад, к примеру, состоялась акция «Чистые руки и дыхательные упражнения» для всей республики

– В каких направлениях деятельность волонтеров особенно активна?

– Почти 90 процентов, как показал анализ в рамках совместного проекта Агентства госуслуг

Кто такой волонтер? Человек отдает свои знания, навыки, И именно в этом духе воспитыва с детства.

и ПРООН в Узбекистане, проявляют наибольший интерес к социальному направлению. Молодежи хочется помогать уязвимым слоям населения. Взрослое поколение





Радует, что люди все больше интересуются волонтерством. Начинают понимать, что это не просто бесплатная рабсила. Без добровольцев не обходится ни одно мероприятие. Это лицо страны!

– Как становятся волонтерами?

– Бытует неправильное мнение, что обязательно нужно где-то регистрироваться. Чтобы делать добрые дела, достаточно просто открыть глаза и посмотреть вокруг. В каждой махалле, в каждом доме есть люди, которые нуждаются во внимании. Интересуетесь природой – посадите молодые деревья, ухаживайте за растениями во дворе. По душе социальное направление – помогайте больным, пожилым, многодетным...

Если же привлекает что-то более масштабное, следите за нашим Telegram-каналом (@uva_uz), где



ГИМ, ПОМОГАЕШЬ СЕБЕ

мер «Mehri qo'llar». Там продукты питания предоставляются на определенный срок. Скажем, если кормилец болен и у семьи появляются непредвиденные материальные проблемы.

В масштабах страны постепенно популяризируется понятие волонтерства. Многие путают его с пожертвованиями. Это факт. Отметила для себя, что направления волонтерства нужно людям раскрывать. Благодаря просветительской деятельности при непосредственном участии Агентства по делам молодежи набирает обороты экологическое направление. Разрабатывается система развития эко клубов по республике, чтобы ребята собирались «вокруг» этой темы, рассуждали, вносили предложения.

В прошлом году была цель внести понятие «волонтерство» в массы. В 2022-м хотим с командой раскрыть направления добровольческой дея-

освещаются площадки, на которых ищут и ждут волонтеров.

– Расскажите о самых активных членах Ассоциации волонтеров. Кто эти ребята?

– Муниса Муллоджанова – создатель инициативной группы «Солнышко», Робияхон Акбарова – инициативная группа «Если не мы, то кто?», Диана Шарипова из Намангана – «Дыхание жизни», Елена Семерджи – «28 петель», Камола Сафарова и Эльдор Шерматов – медики-волонтеры, Ферузобону Тошпулатова – «UzAlert». Могу перечислять долго, список будет огромным. Каждый ценен и важен. Отличает этих людей от других настырность в положительном смысле слова. Ребята, которые не свернут с выбранного пути, поставив цель. Они многогранны, чем бы ни занимались. За любое дело берутся с энтузиазмом, с интересом, с полноценной отдачей.

Вспоминаю одну историю. Пошла на прием к стоматологу, однокурснику мужа. Завязался разговор о моей работе. Когда сказала, что волонтерство у меня в приоритете и хочу поднять его уровень, врач засмеялся: «У меня тоже есть два сумасшедших студента. Я преподаватель. В период пандемии предложил поставить автоматом оценки тем, в чьих знаниях уверен. Студентка, которую оценил на «отлично», не согласилась. Дескать, будет сдавать, чтобы получить заслуженную пятерку. Одним словом, волонтер». Оказалось, это наша Камола, которая с успехом совмещала учебу, участие в международных олимпиадах, помощь населению во время пандемии.

Есть у ребят, конечно, и ошибки, с которыми активно борюсь. К примеру, излишнее самопожертвование. Что больше всего радует? Объединяющее чувство плеча, преданность, верность делу, идеям, самоотдача, умение отстаивать свою точку зрения и плыть против течения, если того требует ситуация.

– Обмениваетесь ли опытом с зарубежными волонтерами?

– С международной площадкой стали сотрудничать еще со «Времени чудес», когда отправляли активистов на разные волонтерские встречи. Продолжили традицию и в статусе ассоциации, закрепив контакты юридическими меморандумами. На сегодняшний день подписано семь: с Непалом, Эстонией, Тунисом, Казахстаном, Россией, Беларусью, Египтом. Скоро наши ребята будут принимать участие в качестве добровольцев на «Формуле-1» в Баку. Международное, да и вообще волонтерство, – это окно в большой мир через классные дела.

Через такое «окно» можно развивать и культурный туризм. Скажем, в Каракалпакстане посадка саксаула, в Хиве – помощь в работах по реконструкции... Сквозь эту же призму запускать экологические проекты. Есть же за рубежом определенное время, выделенное для коллективного спасения черепах, помощи дельфинам. Хотелось бы, чтобы эко клубы запланировали такие специфические региональные мероприятия, в которых бы участвовала молодежь со всего Узбекистана.



– Что сегодня мешает развитию молодежного волонтерства в республике?

– Большой вопрос. Как бы банально ни звучало, это финансирование. Есть волонтерские инициативы, которые живут на энергии и энтузиазме ребят. Было бы очень хорошо иметь финансовую поддержку с системой отчетности и контролем. Когда группа «Солнышко» обустроивала общежитие для слабовидящих, столкнулась с проблемой, что там нужны особые стройматериалы, приспособления в соответствии с потребностями адресатов. Куда только не обращались! Хорошо, что у нас немало добрых и щедрых людей, которые берут расходы на себя. А ведь это вопрос государственного масштаба. Граждане готовы тратить время, знания, силы на благие дела, но при этом сталкиваются с преградами. Как бы красиво ни звучало слово «волонтерство», не все организации понимают, что с добровольцами нужно работать системно, поддерживать инициативы, учить, развивать движение. То есть вырисовываются два проблемных аспекта: один финансово-го плана, другой – морального.

– Как вы сами стали волонтером?

– Когда была ребенком, дружила с ребятами с особыми нуждами. Родители воспитывали нас так, чтобы мы общались с ними на равных. Мама приглашала соседских детей к нам делать уроки, мы ходили к ним в гости, делились продуктами. До определенного времени в моем сознании не было понятия «человек с инвалидностью». Взрослея, начала понимать, как им непросто. С грустью замечала, что мир агрессивен по отношению к тем, у кого проявляются особенности в развитии. Возможно, именно поэтому уже в школе выбрала такую индивидуальную линию развития. Активисты клуба ЮНЕСКО, мы ходили к учебным заведениям и проводили уроки по правам детей. Чувствовала, что делаю нечто большое, важное.

Признаюсь, благодарна своему волонтерскому пути, однако никогда, даже в мечтах, не могла предположить, что буду стоять у истоков целой ассоциации добровольцев. Мужу напоминаю: «Ассоциация – мой четвертый ребенок». Свою задачу как руководителя вижу в том, чтобы волонтерская атмосфера сохраняла доброту, заряжала и окрыляла. И не столь важно, какое направление выберут люди с добрым сердцем. Главное, чтобы они стали лучшей версией самих себя.

– Какие планы у ассоциации? Над какими проектами сейчас работаете?

– Стремимся подготовить координаторов волонтерских инициатив как профессионалов, чтобы завтра они могли преобразоваться в юридическую организацию. Организацию, которая будет выигрывать гранты, осуществлять масштабные проекты. Волонтерство – хороший трамплин в большую интересную жизнь.

Ребята, у которых есть такой опыт, проявляют себя, где бы ни работали. Есть и такие, кто не может расстаться с волонтерством. Они способны передавать свой опыт, руководить. Нам пришлось пройти нелегкий путь – не хочу, чтобы с теми же проблемами сталкивались другие юноши и девушки.

Если в прошлом году ставили целью поднять значимость слова «волонтер», создать его образ, объединить всех на одной площадке, то сейчас говорим о качестве. Видим, что по Узбекистану около ста молодежных инициатив. Это только из числа активных объединений. А сколько новых, которые только начинают деятельность. Кто никому не говорит о своих делах, но выполняет не менее важную функцию. Дело не в том, чтобы кричать о сделанном на весь мир. Просто порой происходит дублирование. Скажем, в одном городе достаточно внимания малообеспеченным, пожилым, людям с инвалидностью, а в другом населенном пункте люди зимой закладывают фанерой окна и затыкают щели ватой. Знай волонтеры об этой проблеме – непременно бы помогли.

Хочется наладить качественную составляющую, систему добровольческих инициатив с грамотной отчетностью, чтобы ребята могли сами для себя подводить итоги года. К сожалению, встречаются и недобросовестные люди, открывающие карточки для сбора средств, а собранные деньги не доходят до адресата. И это не единичные случаи. Поэтому Ассоциация волонтеров Узбекистана ставит перед собой задачу – повышение качества работы.

Еще один момент – укрепление международных связей как возможность путешествовать сквозь призму волонтерства. Общение добровольцев разных стран, на каком бы языке оно ни происходило, обогащает и заряжает новыми идеями.

Беседовала
Ольга АЛЕКСАНДРОВА

...который в свободное время
ресурсы, силы на благие дела.
...ывается народ Узбекистана

...тельности. Ребятам моим отдельное
спасибо! Каким бы ни был человек
по своим личностным качествам, он
достигнет результатов только рядом
с единомышленниками.



КУЛЬТ  СВЕТ

Преступление и наказание

В Узбекистане усилили ответственность за порчу и уничтожение объектов культурного наследия.



Президент подписал закон о внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты, связанные с охраной исторических памятников.

Так, дополнение внесено в статью 132 Уголовного кодекса. Согласно ему, правонарушители, совершившие повторное преступление, с причинением крупного ущерба или по предварительному сговору группой лиц, наказываются штрафом в размере от 300 до 500 базовых расчетных величин (БРВ). В поправке также идет речь об ограничении и лишении свободы сроком от трех до пяти лет. Те же действия, совершенные с причинением особо крупного ущерба, наказываются лишением свободы от пяти до семи лет.

Дополнения внесены и в Кодекс об административной ответственности. Например, за невыполнение предписаний Агентства культурного наследия гражданина ждет штраф в размере 1–3 БРВ, а должностное лицо – 3–5 БРВ.

Анимация – для креативных

Агентство кинематографии и студия Bazelevs Animation Тимура Бекмамбетова анонсировали открытие обучающих анимационных центров в Узбекистане.

Цель – сформировать самокупаемую региональную сеть анимационных студий согласно концепции «учись и зарабатывай» для актеров кукольного театра и выпускников соответствующих факультетов творческих вузов. Молодежь будет осваивать профессию аниматора в рамках конкретного проекта – мультфильма «Ходжа Насреддин», с нуля создавая всех его персонажей.



Планируется, что работа над экспериментальным мультфильмом продлится до 2023 года. После этого молодых специалистов привлекут к другим проектам студии Bazelevs Animation.

Награда за творчество

Узбекский писатель и драматург, главный редактор газеты «Инсон ва конун» Кучкор Норкобил награжден орденом Святой Анны.



Награда присуждена Общественной палатой Государственной Думы РФ и Международной ассоциацией писателей России. Наш соотечественник удостоился ее за изданные в России произведения «Я пришел увидеть твои глаза», «Тюльпан на снегу» и ряд других работ. Автор с высоким художественным мастерством раскрывает общечеловеческие идеи, тему любви, характер простых людей.

Орден Святой Анны вручается за активную пропаганду искусства и культуры в литературе, внесение достойного вклада в развитие творческих связей между народами.

Сувенир на память

В государственных музеях республики решили продавать копии экспонатов.

Приобрести их можно будет в магазинах Museum shop, которые откроются во всех учреждениях культуры, а также на официальных сайтах. Такое решение принято Агентством культурного наследия для того, чтобы привлечь к музейным экспозициям еще больше посетителей, особенно молодежи.



В этом году также планируется провести передвижные выставки «Арт-караван», фестиваль «Национальные сувениры», культурно-просветительские мероприятия «Ночь в музее», Open sky, «Путешествие в музей со звездами».

СВЕТ ЗНАНИЙ

«ПОДАРИ МАХАЛЛЕ КНИГУ!»

Так называется проект, стартовавший в Наманганской области. Цель – формирование культуры чтения в каждой махалле, пополнение библиотек новыми изданиями, приобщение граждан к лучшим образцам классической и современной литературы.

Инициатива реализуется на основе приоритетных задач, намеченных в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы по повышению культуры чтения среди населения.

Акция стартовала в Янгинаманганском районе. Его хоким Жобир Абдуллаев проинформировал представителей всех махаллей о проекте и его важности. Отмечено, что особое внимание будет уделяться молодым людям, проживающим в сходах граждан, укреплению их духовности и расширению кругозора. Списки литературы также формировались с учетом интересов и мнений представителей подрастающего поколения. Есть энциклопедии, спра-

вочники, издания по психологии, лучшие произведения отечественных и зарубежных авторов.

– Сейчас многие юноши и девушки предпочитают электронные книги бумажным, но я люблю «классику» – шелест страниц, запах типографской краски, возможность побыть наедине с собой и любимыми героями, – говорит 17-летняя Назкат Кадырова, жительница одного из сходов граждан. – С удовольствием читаю произведения Алишера Навои, Абдуллы Кадыри, Пиримкула Кадырова. Сложно представить лучший подарок, чем подборка хороших

книг. Надеюсь, такие литературные акции будут проходить регулярно.

После торжественной церемонии колонна машин с книгами направилась во все сходы граждан, которым переданы комплекты изданий от имени районного хокимията.


Проект реализуется совместно с областным управлением по поддержке махалли и семьи, областным отделением Общественного благотворительного фонда «Махалла», районным советом фонда «Нуроний» и рядом других организаций.

Лилия РУСАНОВА



УЗНАЙ!

В обсерватории в Китабе, на берегу реки Кашкадарья, находится одна из пяти первых широтных станций в мире. С весны 2010 года китабская команда занимается поиском опасных околоземных астероидов.



Промышленная разработка нефти в Узбекистане началась в конце XIX века: ее добывали из двух колодцев вблизи поселка Чимион в Ферганской долине.



Трактат Абу Райхана Беруни, написанный в 1037 году, считается первой энциклопедией по астрономии.



Камень-сердце со сквозным отверстием находится в 30 километрах к югу от Самарканда, вблизи поселка Каратепе. Огромный валун часто называют «Динозавром» за особую форму.

JARAYON

AJDODLAR MEROSI

TA'LIM-TARBIYA MASALASI KECHIKTIRILMAYDIGAN VAZIFA

Hadislarda aytilganidek, ota-onalarning farzandlariga qoldiradigan eng katta merosi ularga o'rgatadigan axloqi va odobidir. Bu borada Sharq mutafakkirlari ham o'z asarlarida juda ko'p to'xtalib o'tishgan. Jumladan, buyuk alloma va mutafakkir Abu Ali ibn Sino o'zining "Donishnoma" asarida bola tarbiyasi uchun, avvalo, ota-ona mas'ul ekanini ta'kidlaydi. Alloma o'z asarida ota-onaning ilmi, fozil va dunyoqarashi keng bo'lishi lozimligini uqtirib, farzand tarbiyasidan mas'uliyatliroq ish yo'qligini ochib beradi.

Ilmiy kuzatish va tadqiqotlar inson o'z umri davomida oladigan barcha ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda faol qabul qilishini, bolaning ongi 5-7 yoshda shakllanishini ko'rsatgan. Bu jamiyatga kirib kelayotgan shaxsning ma'naviy-ruhiy olami, dunyoqarashi, salohiyati uning maktab yoshigacha bo'lgan yillarda olgan ta'lim-tarbiyasiga uzviy bog'liqligidan dalolat beradi.

Bu borada maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, bola kamolotining ilk kurtaklari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida namoyon bo'ladi. Bu muassasalarda ta'lim-tarbiya sifati hamda samaradorligi, zamonaviy imkoniyat va sog'lom muhit murg'ak farzandlarimiz taqdirida g'oyat muhim o'rin egallaydi.

Shu bois, yurtimizda maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagiga aylandi. Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, shu asnoda bolaning intellektual qobiliyatini shakllantirish, ta'lim xizmatlarini yaratish orqali sifat darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani sohadagi izchil islohotlarning natijasidir.

Xabaringiz bor, 2020-yil 29-dekabrda Toshkent shahridagi Xalqaro Kongresslar zalida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaat-nomasida "Bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – ijtimoiy ahvolidan qat'i nazar, bog'cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta'lim yo'nalishi bilan to'liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat", deb ta'kidlaganlari bejiz emas.

So'nggi besh yilda maktabgacha ta'lim sohasida 83 ta normativ-huquqiy hujjat, Prezident farmon va qararlari qabul qilindi. Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini oshirish hozirgi 62 foizdan kamida 80 foizga yetkazish belgilangan bo'lsa, 2022-2023-yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024-2025-o'quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish ko'zda tutilmoqda.

Bundan tashqari, Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining professional tayyorligi va mahoratini oshirib

borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda o'zim faoliyat yuritayotgan 22-maktabgacha ta'lim tashkilotida bolajonlarga qiziqarli, innovatsion uslublarda saboq berish, ularni atrof, borliqqa qiziqtirish, shakllanib borayotgan iste'dodini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor beryapmiz. "Bilimdon bolajon", "Quvnoq o'yinlar", "Kim nimani yaxshi ko'radi?", "Birgalikda o'ynaymiz", "O'yla, izla, top!" kabi interfaol o'yinlar bolajonlarda katta qiziqish uyg'otmoqda.

Kichik guruh bolalari uchun ta'limiy, rangli-bezakli badiiy "Qizil gul", o'rta guruh bolalari uchun "Oq gul" kitobi asosida ta'lim beryapmiz. "Bor ekan, zo'r ekan!", "Aqlvoy oshpaz" bolalarning sevimli kitoblari sanaladi. Ularga ertaklar o'qib beramiz. Kundalik hayotimizda sodir bo'luvchi voqealar oddiy, bolalar tilida bayon qilingani bolajonlar uchun qiziq.

Buyuk mutafakkir Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobida "Alloh taolo insonlarni asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi bilan yomonni, foyda bilan zararni, oq bilan qorani ajratadigan qilib yaratgan. Lekin insondagi bu qobiliyatni kamolga yetkazish – tarbiya bilan bo'lur", deb yozib qoldiradi.

Muxtasar aytganda, maktabgacha ta'lim tizimiga qamrovni yanada kengaytirish, bolajonlarni sifatli ta'lim va tarbiya bilan qamrab olish oldimizga qo'ygan asosiy vazifamiz bo'lib qolishi zarur.

Feruzaxon ISMOILOVA,
O'zbekiston tumanidagi
22-MTT tarbiyachisi



“ALGORIZM” VA “AL-JABR”

Britaniyalik mashhur jurnalist Endryu Marr "Dunyo tarixi" turkum ko'rsatuvida bugungi o'zbeklarning ajdodlarini alohida hurmat bilan tilga oladi. Xususan, mazkur dasturlardan birida o'z davrida butun Islom olami olimlariga yetakchilik qilgan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy dahosiga atalgan lavha ham o'rin olgan.

"G'arbda ismi Algoritm, deya buzib talaffuz qilinadigan olim – al-Xorazmiy bo'lmasa, kompyuter yo qo'l telefonlari kashf etilmas edi, shuningdek, bu inson ismini har gal qo'lingga mobil telefoningni olganingda esla!", deya ta'kidlaydi jurnalist.

Har bir qo'l telefoni ichida bizning ajdodimiz bor. Bu allomaning ismi – Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy.

Ma'lumot o'rnida shuni qayd etish joizki, Xorazmiyning arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan o'nlik pozitsion hisoblash sistemasining Yevropada, qolaversa, butun dunyoga tarqalishida buyuk ahamiyat kasb etdi. Yevropaga hind raqamlari arablar orqali o'tganligi uchun ular "arab raqamlari" deb nomlangan va hozir ham shunday deb atalib kelinmoqda. Yevropaliklar uzoq vaqtgacha hind raqamlariga asoslangan

hisob tizimini "algorizm" deb atab keldilar. Faqat XVI asr o'rtalarida bu nom "arifmetika" iborasi bilan almashadi. Shundan keyin bugungi kungacha "algorizm" yoki "algoritm" deganda har qanday muntazam hisoblash jarayoni tushuniladigan bo'ldi. Bu ibora bilan Xorazmiyning nomi fandan abadiy o'rin oldi.

Xorazmiyning algebraik risolasining to'liq nomi – "Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala". Risolaning nomidagi "al-jabr" va "al-muqobala" so'zlari "to'ldirish" va "ro'para qo'yish" o'rta asr algebrasining ikkita asosiy amalini anglatadi. "Al-jabr" so'zi lotincha transkripsiyada "algebra" bo'lib, Xorazmiy asos solgan yangi fanning nomi bo'lib qoldi.

Nargiza MIRDADAYEVA,
Shayxontohur tumanidagi
157-maktabning matematika
fani o'qituvchisi



KO'NGIL BITIKLARI



Shu kunlarda o'z olamimdagi kitoblari, o'zim yaratgan badiiy qahramonlar bilan ko'p "sayr qilyapman". Avvallari yotoqxonada, hamma uyiga ketganda, tinchgina "do'stlarim" bilan suhbatlashar edim. Endi hamma ketishini kutishim shart emas. Chunki o'zimni ketkazib yuborishdi... Yo'g'e, hech kimga yomonlik qilmadim, og'irligim ham tushgani yo'q! Shunchaki, bayramga tayyorgarlik qilish maqsadida butun raqqos va raqqosalar bizning yotoqxonaga joylashgan. Menimcha, shu kunlarda "O'z olamlar tortishuvi" da bergan va'dam — o'z olamim haqida yozish vaqti keldi.

Men o'zimni kelajakda rahbar sifatida ko'raman. Va shunga intilyapman. Maoshi yaxshi bo'lgani yoki shunchaki topshiriq berib o'tirish uchun emas, nimanidir, kimningdir hayotini o'zgartirish, iziga qo'yish — maqsadim. Buning uchun menda talaygina rejalar bor.

XOTIRA

...2019-yil sentabr. O'quv yilining boshi. Matbuotda ishlardim. O'qishga kel-sam, o'tgan o'quv yilida biz ko'rmagan o'rtacha bo'lyi, ozg'in, qorachadan kelgan, ko'zoynakli Oybek Ochilov ustozimiz darsni boshladi. Qisqa tanishuvdan keyin auditoriya-ga savol tashladi:

— "Strategiya" nima?

Kimdir turib, javob berdi:

— Biror maqsadni to'g'ri va ishtiqlik bilan rejalashtirish.

— To'g'ri. Sizlarga topshiriq: har biringiz mamlakatni yoki biror tashkilotning rivojlanishi uchun o'z strategiyangizni ishlab chiqing!

Olashovur boshlandi: "nimanani yozamiz", "qanday yozamiz", "biz yozganimiz nimanani hal qilib berardi?"... Men esa bir chetda jimgina yozib bo'lgach, o'qib berish uchun ruxsat so'radim. Ijizat bo'ldi, o'qiy boshladim:

— Birinchisi: Konstitutsiyaviy normalarning ahamiyatini oshirish!

Auditoriyada e'tirozlar boshlandi...

— Shoshmang, gapimni isbotlab beraman, — dedim.

— Masalan, men Konstitutsiyani yoddan bilmayman, bu menga kerak ham emas, deb o'ylayman! Agar men Angliya, Germaniya, Xitoy kabi davlatlarda bo'lganimda, barcha moddalarni (hech bo'lmasa, ular mazmunini) yoddan bilgan bo'lardim. Masalan, hozirgi paytda hamma joyda

qurilish bo'lyapti, to'g'rimi? Qurish uchun "SNOS" qilib joy ochishyapti. Prezident talabi, xalqning noroziligiga qaramay, odamlarni boshpanasiz qoldirishyapti. Bunday amaliyot Xitoyda qanday bo'lishini bilasizmi? Yaqinda internetda tarqaldi: Xitoy shaharlarining birida yo'l qurilayotgan ekan. Tabiiyki, yo'lining loyihasi odamlarning uyidan o'tadi. Ular avval uyni sotib olib yoki fuqaroga uy berib, rozilik bilan buzishadi. Shu xonadonlarning birida yashovchi oila uyining buzilishiga ko'nmaydi. Sababi, hukumat berayotgan pul uni qoniqtirmagan. Xo'sh, ular nima qildi. Albatta, bizdagiga o'xshab buzib tashlab, nomi-ga uzr so'rab, qutilib ketgani yo'q. Loyiha o'zgarib, yo'l uyni aylanib o'tadigan bo'ldi. Mana sizga qonun, qaror, rozilik va Konstitutsiyaning ahamiyati!..

Auditoriyaga nazar soldim. Jimlik. Keyingi taklifga o'tdim.

— Ikkinchisi: Bayram, tad-bir va majlislarning 80 foizini yo'q qilish!

"Xalq ham o'ynab-kulishi kerak-ku", degan e'tirozlar yangradi.

— Och qoringa o'yin-kulgi tatimaydi, — dedim javo-ban. — Agar bundan foyda bo'lganda, O'zbekiston rivoj-langani davlatlar orasida birinchi o'rinda turardi. Bitta misol keltiraman. Istalgan bayramni olaylik. Kamida bir oy tayyorgarlik ko'riladi. O'rtacha besh yuzta odam qatnashadi. Ularning har biri uchun uch mahal ovqat, yotoq joyi, repetitsiya maydoniga borib-kelish uchun aftobuslar va hatto ichimlik suvigacha pul ajratiladi. Dekaratsiya, qatnashchilarga maosh, kiyimlarning pulini-ku aytmasa ham bo'ladi... Shuncha pul-ga butun boshli bitta tumanni obod qilsa bo'ladi. Kamida ikkita zavod yoki fabrika qurish mumkin. Yaponlar biz-ga yaxshigina "master klass"

bo'lgan. Xerosima va Naga-sakiga "atom" bo'mbasi tash-langach, butun dunyo ularni "qoloq" deb atadi. Ular birikdi va "Barchasi kelajak uchun!" deya davlatga bor boyligini topshirdi, yillab maoshsiz ish-ladi. Hech qanday tabiiy boy-lik-siz qanday natijaga erish-ganini ko'rib turipsiz...

— Uchinchi taklifim, yer resurslaridan: tog'li, toshloq, cho'l zonalaridan unumli foy-dalanish. Bir paytlar suvni ko'paytiramiz, cho'l hududlarini suvot qilamiz, degan va'dalar berilgandi. U vadalar hali ham o'zgarangan — va'daligicha turipti. Har yili bir ahvol: dehqon tom orqasiga birinchi-yu ikkinchi ekinlarga nima eki-shigacha belgilab, "plan" ham qo'yiladi. Vaholanki, yerni dehqonning o'z ixtiyoriga berish kerak. U agrar universitetni bitirganlardan ko'ra yerni yax-shiroq tushinadi, qachon nima ekishni o'zi biladi. Tog'li hudud-larga esa, yer pista, bodom va shunga o'xshash yomg'ir su-vining o'ziga qoniqib o'sadigan mahsulotlardan ekish kerak. Cho'l hududlariga ekin ekishni Qozog'iston tajribasidan olsak bo'ladi, menimcha. Bilasizmi, ularning uni nega oppoq, biz-niki qoraroq? Chunki ularning bug'doyi — suv ichmaydi. Bo'yi past bo'ladi-yu hosili biznikiday.

— To'rtinchi taklif, mam-lakatni rivojlantirishda Xitoy tajribasidan foydalanamiz, deyishyapti. Menga ularning birgina tajribasi kerak. U ham bo'lsa, soliqlar kamligi. Xitoy aholisining qanchaligini o'zingiz bilasiz. Mamlakat ularning hammasini ish bilan ta'minlab bera olmaydi. Qanday yo'l tut-di? Odamlar uyida biror ish-lab chiqarishni yo'lga qo'ysa, hech qanday soliq yo'q. Tek-shiruv ham. Raqobat kuch-li bo'lgach, sifat ham oshib ketaveradi. Bizda esa hatto ekologiya solig'i ham bor.

— Beshinchi taklif, xalqdan "tajriba quyonchasi" sifatida foydalanmaslik...

E'tirozlar barobarida kulgi ko'tarildi xonada. Hatto jimgina tinglayotgan o'qituvchimizning ham yuziga tabassum yugur-di. Izoqlashni boshladim:

— Misollarni keltiraman, sanab turing! Avvalo, ikki yil oldin hamma joyda elektr hisoblagichlarni davlat

almashtirgandi. Bu yil yana almashtirayapti. Nima emish, shu bilan 16 yildan keyin almashtirilarkan. Oldingisi-ni ham o'rnatayotganda 20 yil deyishgandi... Keyingi-si: "Pereval", "Betonka" va shunga o'xshash katta yo'llar o'rtasidagi beton to'siqlar temir to'siqqa almashtirilayot-gan edi, chala qolib ketdi. Shuningdek, chorrahalar-ga kameralar o'rnatilib, jarima-lar soni oshganining guvohi bo'ldik. Bir mashinaga sveto-forda to'xtash chizig'idan o'tib ketgani uchun jarima yozildi. Lekin kamera ochib qaralgan-da, chiziq allaqachon o'chib ketganini ko'rasiz... Qolaversa, biz ishlab chiqarayotgan mashinalarning chirog'i 40 gradus issiqda yonib tursa, erib ketishini bilsak-da, pul ishlash uchun jarima belgilab qo'ydik. Yana bu talab bekor qilindi... Ko'ryapsizmi, qaror tasdiqlanadi-da, uzoqqa bor-may bekor bo'ladi. Bir ishni boshlaydi, oxirigacha yetmay-di. O'rtada xalq sarson: jarima to'lagan, mashinasi yonib ketgan... Menimcha, endi e'tirozdan ko'ra, misol ko'p bo'lsa kerak? — deb auditori-yaga sin soldim. Barcha jimib qolgan, boshlar mulohazaga muk tushgandi...

ORZU

...Biror tashkilotga rah-bar bo'lib, shu ishlarni yo'lga qo'ydim ham deylilik. Xo'p, nimalar qilishim mumkin? Bir majlis o'tkazib ko'ray-chi... Darvoqe, majlislarga chek qo'yaman, degandim-ku?! Shunday ham bo'ladi. Hech bo'lmasa, tanishuv o'tkazay, nimalarni o'zgartirish va bajaran kerak, nima maqsadlarim bor, muhokama qilaman.

Men ularga, ular esa men-ga begona bo'lgan auditoriya. Chorak qismi yoshlar, qolgani esa, qariyalar — ensa qotirib o'tirishipti. O'zimga ishonch bilan gap boshlayman:

— Tobutning ham, manavi, men o'tirgan kresloning ham egasi bo'lmaydi. Men bugun sizlarga bosh bo'lganim uchun topshiriq berib, dil xiralik qil-moqchi emasman. Shunchaki, kimnidir yo nimanidir o'zgartirishga urinib ko'rmoqchiman! Tashkilotimizda hech kimni norozi qilib qo'ymayman. Har bir insonni boy qilamiz. Boy bo'lganda ham ma'rifatli boy! Hozir ahmoq boylar ko'p. Masalan: farzandini o'qish-ga kirgizib qo'yadi, grantga. Suyunchisiga mashina ham olib beradi... Aqlli bo'lganida, zo'r bo'lganida, bolasi grantga kirsas, kontraktga tushirtirgan bo'lardi! Bu esa ho'-o'v, chek-ka qishloqda mol boqib, kitob o'qib tayyorlangan bolaga bit-ta o'rin bo'lardi. Bunday ziyoli boylarni hamma qadrlaydi va ular shunga arziydi.

Biz bilamiz — otaning nomi-ni aytib ishini bitirib ketish yax-shi. Undan-da zavqlisi, biror joyga "men falonchining ota-siman!", deb borganingizda hurmat bilan kutib olishi... Bu boshqa daraja. Mana shun-day ziyoli o'g'il-qizlarni tarbi-yalashimiz kerak.

Savol: daraxtdagi barg nimaga to'kiladi?.. Hamma hayron tikilib turibdi. Huddi ustozimiz Faxriddin Karimov bizga shu savolni berganda, jim qolganimizdek.

— O'zidan keyingi yaproq unib-o'sib ketishiga ishonch xosil qilganda to'kiladi... Biz esa, shu bargning ishini ham qila olmayapmiz. Orangizda kim ayta oladi, o'zimdandan keyingiga shu insonni tayyorla-yapman, unga ishonaman, deb kim ish o'rgatayapti?.. Hech kim! Sababi ma'lum: noningizni yarimta qilishni xohlamaysiz! Shuncha tala-balar bor orangizda, ammo ularga qaragingiz kelmaydi. Omadi kelib, ishga kirib qol-sa-chi?.. Buxgalteriya bilan xodimlar bo'limi, sizlar mobo-do oylik maoshni cho'ntagin-gizdan to'lamaysizmi?! Yoki ularga maosh tushsa, sizniki kamayib qolmaydimi?.. Unda nega shu bolalar uchun pul berishga og'rinasiz. Bayram-da mukofot puli yozilib qol-sa, "student-ku" deb kesish harakatiga tushasiz? Ho'sh nima bo'пти, qaytanga ularga ko'proq pul tushirib bering, o'zi qiynalib yuribdi, savob bo'ladi!..

Bo'lim boshliqlari, qo'lin-gizdagi xodim sizga bo'ysun-mayaptimi, demak bu yerda nimadir risoladagidek emas! Deylik, xodim ilm, salohi-yat, daraja jihatlaridan sizni o'zidan ustun bilmayapti yoki ishda adolat o'rnatmagansiz. Shaxsan kuzatib yuribman ayrimlaringizni — internetda kino ko'radi, o'yin o'ynaydi, konsert tomosha qiladi... Ish-xonadagi "Wi-Fi"ning va kom-munal resurslarning ham hiso-bi bor, javobi bor! "Davlatniki" degani, behijolat sovraverish mumkin, degani emas!.. Bun-day holatda sizga biron er-gashmaydi. Bunaqa boshliqqa qanday ergashish mumkin, axir? Rahbar degan, kerak bo'lsa, qo'l ostidagi har bir xo-dimning uyida nima bo'lyapti, nima yeb, nima ichayotgani-ni ham bilishi kerak. Oilasini boqishga qiynalmayaptimi, boshqa joydan ish qidirib, bu yerdagi ishiga ulgurmay qol-mayaptimi? Bilishi kerak!..


XOTIMA

...Ozgina berilib ketdimmi? Yoki juda pessimistik qildim-mi?.. Nima bo'lgandayam, mening orzularim amal-dorlarning va'dasi kabi o'zga-rishsiz qolib ketmaydi, degan umiddaman.

O'z-o'zi bilan qolish yaxshi narsa — istaganingcha o'z ola-mingni yaratasan, kishi. Endi esa shu "mukammal" deb bil-gan olamimni hayotga ko'chi-rish uchun harakat qilish ke-rak. Bu, albatta, o'z qobig'idan chiqolmaslik yoki burnidan nari-ni ko'rolmay, o'z bilganini qilish kerak degani emas.

Ushbuni yozish jarayoni-da bir narsani anglab yetdim: beg'ubor, yaxshi, baxtli ya-shash uchun jig'ildon to'ldirish maqsadini bir chetga surib qo'yish kifoya ekan.

Bunyod ABDULLAYEV



Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Oybek "Navoiy" romanini yozmoqchi bo'lgan davrda bobomiz qiyofasi quyuk tumanlar ichida chirog'i o'chgan uy kabi zulmatda edi. Lekin Oybek unga pok niyat va ixlos bilan qadam qo'yaverdi, ruhan kurashdi, mafkura va turli davrlar xiralashtirib qo'yan chiroq oynagini tozalab, qalblarga yorug'lik olib keldi. Oybek Navoiy

2021-yilgacha qayta ishlanib, nashrga tayyorlandi. Bu romanga tarixiy, badiiy, xotira asarlari bilan bir qatorda "Qur'oni Karim" ham asos qilib olindi. Asardan Navoiy bitiklari kabi hamdalar o'rin oldi: "Bu ma'voda hech kim o'zining ne ekanini bilmaydi. Biroq o'z tirikligidan, tevaragidagi hayot jo'shqinligidan hayron-hayron turadi. Oybekning "Navoiy" romanidagi voqealarni yanada mufassal o'rgandi, tarixiy haqiqatlarni tikladi, ularni yanada boyitdi. Xususan, Oybek asarida Navoiyning bolalik va yig'itlik chog'larini tasvirlashni joiz deb topmasdan, uni Zayniddin va Sultonmurod sog'inib yod olgan yetuk shoirlik davridan asar voqealariga kiritadi va to'qima obrazlar tufayli Navoiyning ideallashtirilgan qiyofasiga kitobxon nigohini qadaydi. Isajon Sulton esa salafлари ijodini to'ldirib bizga Navoiyning bolalik va o'smirlilik yillarini ham tuhfa etdi.

"Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" uchun otildi; Oybek "Navoiy" romani uchun nohaq zulmga uchrab, oqibatda tildan ayirildi; Maqsud Shayxzoda "Jaloliddin" va "Mirzo Ulug'bek" uchun yigirma besh yilga "kesildi"; Mirkarim Osim tarixiy asarlari uchun o'n yilga qamaldi; Pirmuqol Qodirov "Yulduzli tunlar"

kelishdi. Horigan bo'lishsa-da, kayfiyati chog', bir muddat istirohatga ruxsat berilganini, Alisherni mavlono Lutfiy o'z huzuriga chorlaganini aytib, shu sababli to'ppa-to'g'ri shu yoqqa kelaverishganini aytishardi" (73-bet).

Oybek tasviri orqali biz yosh Alisherning ilmga, adabiyotga ishtiyoqi, qiziqishi, iste'dodi nihoyatda kuchli ekani, Isajon Sulton tasvirida esa yosh jiyaning qobiliyatiga befarq bo'lmagan tog'alari obrazi, ularning ulug' adib hayotida tutgan o'rmini, bu orqali yaxshi shoirni zamona tarbiya qilishini ko'rishimiz mumkin.

Oybekning "Navoiy" romanida shoir atrofidagi oddiy shaxslarni va ularning hayotida adibning darajasi ulug' ekanini ko'rishimiz mumkin. Isajon Sulton asarida esa voqealar rivoji Navoiy obrazi atrofida aylangan, to'qima obrazlar ham "Navoiy" asarichalik ko'p emas, endi u tarixiy shaxslar, dalil va isbotlar hamda qimmatli maktublar bilan boyigan.

Bir xil voqealar ikki asarda qanday yoritilgan? Keling, bularni, baholi qudrat, ko'rib chiqamiz?

Husayn Boyqaroda Navoiy Astrobodga hokim qilish g'oyasi qanday paydo bo'ldi?

Oybekning "Navoiy" romani-

HAYDAR SABUHIY VA NAVOIYNING ZAHARLANISH VOQEASI

Haydar Sabuhiy ikki asarda ham beqaror, uzoqni ko'rolmaydigan, sayoz kishi deb ko'rsatilgan. Uning achchiq, kinoyali tili tufayli zindonband etilishi Oybekning "Navoiy" romanida kuzatiladi. Bunga sabab Navoiyning joniga Astrabodda suiqaasd qilishlariga qarshi Haydarningtomma'nodaboshko'tarishi edi. Ammo Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida zaharlanish voqeasi ig'vo ekanligi yoritilgan: "Men buni demadim. Ayrim kishilar Sulton Husayn Mirzo Alisher Navoiyni Astrobodga atay surgun qildi, hatto zaharlab o'ldirmoqchi degan gap tarqatibdi. Shunday gap-so'zlar uning qulog'iga yetib borgan bo'lsa ajabmas.

– Kim tarqatibdi?

– Amirning o'z jiyani Haydar Sabuhiy. Bu gapni Astroboddan Hirotda kelganida ayrim kishilaran eshitgan emish" (308-bet).

Haydar "qilmishlari" uchun "Navoiy" romanida zindonga tashlangan, keyinchalik darveshlikni tanlagan bo'lsa, "Alisher Navoiy" asarida u bir umrga saltanat ishlaridan chetlashtirilgan.



chetlashtirildi. Abdulloh Noiy istab borganlar esa uni kimlardir ikki kun avval uyida o'ldirib ketishganidan xabar topishdi. U Majiddiddin eshigida xizmatchi bo'lgan ekan. Shu tariqa, ip uchlari Majiddinga borib taqaldi" (309-bet). Ikkala asarda ham ochko'z vazir boyligi Amir Muhammad Ali Atka tomonidan musodara qilinadi. Ammo Isajon Sulton Majiddinga ayblarni bo'yniga qo'yishda olib kirgan tasviri, mening nazarimda, tabiiylikdan yiroq. Negaki, shunday chor-nochor Majiddinning ruhiy holati yaxshi

O'TMISHNI YORITUVCHI CHIROQLAR

haqida dastlab eski maktabda eshitadi. Shu davrdan qalban Navoiy navosiga ilhaq bo'lib yashaydi. U yurak talpingan kuylar sari intildi, o'qib-o'rgandi: "Zafarnoma", Koshifiy, Qazviniy, "Rashoxad-ayn ul-hayot", "Matlab ut-tolibin", Klavixov, Abdurazzoq Samarqandiy, Vosifiy, Mirxond, Bobur, Xondamir...

Mana shunday samarali mehnatlar tufayli bugungi kitobxon u yaratgan Navoiy obrazini tanidi. Oybek tarixning murakkab davrida yashadi. 1937–1952-yillarda tikilgan dorlardan arang omon qolgan Oybek mustabid tuzum bilan hisoblashishga majbur bo'ldi. Ana shunday vaziyatda Oybek Navoiy obrazidan kuch va madad oldi. 1937-yil "Navoiy" romani uchun xamirturush vazifasini o'tagan "Navoiy" nomli poema yozdi. Roman ustida ishni 1940-yillarda boshladi.

U Navoiy bilan yashadi, uning siyratini anglash uchun uyidan hujra ham qurdirdi, sham yorug'ida qalam tebratib, XV asrni his qildi. Shu tariqa bu asar dunyo yuzini ko'rdi. 1941-yil nishonlanishi rejalashtirilgan Navoiy tavalludining 500 yilligi Ikkinchi jahon urushi tufayli yetti yilga kechiktirildi. 1948-yil bu qutlug' sana o'zbek xalqining milliy bayrami sifatida ilk bor nishonlangandi. O'sha tantanaga ham Oybek Navoiy ruhiga muhabbat bilan bosh-qosh bo'ldi, mas'uliyat bilan tadbirni tashkillashtirdi. Mana shunday mehnatlar samarasi tufayli Oybek Navoiy dek inson qatorida tilga olinish darajotiga erishdi.

ISAJON SULTON "ALISHER NAVOIY" ROMANI UCHUN QANCHALIK MEHNAT QILDI?

Adib bu romanni 2016–2020-yillarda yilligani ko'rsatilgan. Roman

uchun qanday og'ir iztiroblarni boshidan kechirib, umrining oxirida bedavo xastalikka giriftor bo'ldi. Bu mash'um ro'yxatni, afsuski, yana davom ettirish mumkin" (Xayridin Sulton, "Maktub"; "Alisher Navoiy", Adabiyot, 2021, 508-bet). Shu o'rinda tarixiy adolatni yoritib ketishimiz ham kerakki, Isajon Sulton "Alisher Navoiy" romani uchun O'zbekiston xalq yozuvchisi yuksak unvoni bilan mukofotlandi!

Ikki asar bir tarixiy shaxsga bag'ishlangan bo'lsa-da, ikki xil rakursdan qaralgani uchun farqli tomonlari ko'p. Masalan, Navoiy adabiyotga ixlos qo'yib, g'azali tufayli Lutfiy ehtiromiga sazovor bo'lishi ikki xil tasvirlangan. Oybekning "Navoiy" romanida yosh Alisher shoir Lutfiy yoniga yolg'iz borgani ko'rsatilgan: "Mana u ko'pdan buyon qilgan kuchli orzuning kutilmagan vaqtda bir qistovi bilan o'rmidan turdi-da, ko'chaga otildi. O'z tengi bolalar ko'chalarda, tomlarda gala-gala o'ynab yurishadi; kimi yong'oq o'ynaydi, kimi yoydan o'q uzadi. Alisher – bola esa shaharning Bog'ishamol tarafiga (Isajon Sultonida Lutfiy Hiriydan yarim kunlik masofadagi Dehi Kanorda edi, deya ko'rsatilgan) ildam yurib, serhasham bir eshik oldida to'xtaydi. ...Katta, daraxtzor hovlida hassaga suyalib, asta-asta yurgan mo'yasafidga – zamonning ulug' shoiri mavlono Lutfiyga ko'zi tushishi bilan uzoqdan salom beradi va yugurib, o'zini bir onda cholning yonida ko'radi va unga bolalik ko'zlarining toza samimiyati bilan tikiladi" (320-bet).

Isajon Sultonning "Alisher Navoiy"ida esa bola Alisherni Lutfiy hazratlarining o'zi chorlagani, uning qoshiga tog'alari Mirsaid va Muhammad Ali bilan birga borgani qayd etilgan: "Oradan bir oyga yaqin vaqt o'tib, boshdan-oyoq changga botgan tog'oyilar kirib

da kayf-safoga berilib, xazinani ko'kka sovurayotgan podshoga ikki tuman oqcha kerak bo'ladi. Ammo xazinada pul yo'q, uni topib berish va dasini qilgan Majiddiddin uni bosh vazir qilishini so'raydi, ayonki, bunda faqatgina Navoiy zulmga to'siq edi. Shu tariqa asarda Navoiy Astrobodga "surgun qilingan": "Men sizni Astrobodga yurbormoqni munosib ko'rdim, – dedi podshoh ovozini balandroq qo'yib. – Har qanday bahona topsangiz ham qarorimdan voz kechmasmen" ("Navoiy" romani, 310-bet).

"Alisher Navoiy" asarda esa podsho u darajada maishat-parast emas, soliqni ham xazina bo'shagani uchunmas, aksincha uni ko'paytirish uchun solish niyatini Majiddiddindan qabul qiladi, hatto Oybek asaridan farqli unda amaldorlarga ham soliq solinadi: "Mulklar o'lchanib baholanar, hosil chamalanib nisob chiqarilar, to'lov uchun muddat belgilanib, xat imzolatib ketilardi. Avval qora xalq yelkasidagi soliq mashaqqati endi o'rtahollar va yuksak martabali kishilar zimmasiga tushib, hammani esankiratib qo'ydi" (257-bet). Navoiyning Astrobodga hokim qilinishi ham xazina yoki adolatsizlik tufayli emas, zaruriyat jihatidan bo'ladi: "Astrobod bilan Hisor notinch bo'lib, shu ikki navohiyda goh-goh g'alayon olovlar yolg'inlanib turardi" (256-bet); "Sulton Husayn a'yonlar bilan kengashib, saxovat-u xulqda benazir Alisher Navoiyni Astrobodga hokim qilib tayinlashdan boshqa chora qolmaganini, yo'qsa, sovutlar kiyilib, qilichlar qinidan chiqib, qon to'kilishini tushunib yetdi" (296-bet).

"Navoiy" romanida Majiddiddin soliq yig'ishda To'g'onbekka, "Alisher Navoiy"da Qora Mo'g'ulga suyanishi ko'rsatilgan.

Xo'sh, Navoiyning ukasi Darveshali nega isyon ko'tardi?

"Navoiy"da hokimiyatdagi nohaqlig-u adolatsizliklar, Husayn Boyqaroning tartibsiz siyosati Darveshlarni to'ydirib yuborgani uchun qo'zg'olon ko'targaniga ishora qilinadi. "Alisher Navoiy" romanida buning sabablari donolik, fahm-u farosatda tengsiz kishi Xoja G'iyosiddin Dehdor tilidan quyidagicha bayon qilinadi:

"Darveshali bir kitobdor bo'lsa, unda isyon qilmoqqa ne had. Qoldiki, kimlardir bir nimalarni qulog'iga shivirlagan chiqar? Yoki yoshligiga borib, Amir Alisherning Astrobodga yo'nalishidan norizo bo'lsa ajabmas" (307-bet).

MAJIDDIDDINNING PORLOQ QUYOSHI QANDAY SO'NDI?

Har ikki romanda ham bu obraz poraxo'r, qo'ltiqdan tushganini qo'ng'iga uradigan, boyluk va mansab izidan nomatlub ishlardan ham tap tortmaydigan qilib tasvirlangan.

"Navoiy" romanida Majiddinning vazirlik darajasidan tushishiga adolatsizlikka qarshi ko'tarilgan Darveshali isyoni sabab edi. Husayn Boyqaroning nazaridan qolgach esa ayyor Nizomulmulk tufayli boridan, chumoli kabi yig'gan hamma oltin-u kumushlaridan mahrum bo'ladi. So'ng haj safarini o'ziga ma'qul ko'rib, To'g'onbek bilan xayrlashib, roman voqealaridan uzoqlashadi.

Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida bu hol ham, Majiddiddinning tole yulduzi so'nishi ham bu asardan farqli tasvirlangan va uning hokimiyat tepasidan ketishi quyidagicha ochib berilgan: "Haydar Sabuhiy" zaharlanish bilan bog'liq gap-so'zni mastlik chog'i Abdulloh Noiy degan kishidan eshitganiga iqror bo'ldi. Bu bemulohaza yigitga had urish jazosi belgilandi va bir umrga saltanat ishlaridan

ochib berilmagan. Asarda Majiddiddinni "qulatilish" uchun maydonga o'zi ishdan bo'shatgan Muhammad Amruobodiy kirib keladi va Majiddiddinga uning bir og'iz kamsitish so'zi yetib borgach, u hamma aybini shunchaki tan oladi, boridan ayrilgach vazirni hajga yuborish qaroriga keladilar, so'ng vazir Makkaga ketyotganda yo'lda noma'lum qotillar tomonidan o'ldirib ketiladi. Bular shunchaki voqeanavislikdek tuyuldi menga.

Oshpaz Abdusamad va xizmatchi Abdulloh Noiy – taqdirlari o'xshash ikki personaj.

Ikki asarda ham zulm qo'lida o'yinchoq bo'lgan nafs bandalari bor va ularning taqdirlari ham o'xshash – o'lim bilan tugaydi. Ular "Navoiy" romanidagi shoirni zaharlamoqchi bo'lgan oshpaz Abdusamad va "Alisher Navoiy" romanidagi ig'vochi Abdulloh Noiy. Ular uchi topilmasin deya uzilgan kalava iplari, xolos. Navoiyning asardagi so'zlari har ikkalasiga ham tegishli og'riqli: "Abdusamad kim? Ojiz, gumroh bir banda, aqldan mahrum bir olat! Haqiqiy jallodlar, qotillar, eng qabih jinoyatkorlar Hirotdadirlar" ("Navoiy", 376-bet).

Bunday solishtirmalarni juda ko'p keltirish mumkin, ... Ammo qolganini o'zinga ishondik.

Shunisi ravshanki, har ikki tarixiy asardan ham bugunning gapini topishimiz mumkin. Navoiy bejiz Badiuzzamonni tarixni o'rganishga da'vat etmagan. Bu da'vatlar bizga ham tegishli. Masalan, bu asarlarni mutolaa qilar ekanmiz, yuritilayotgan davlat siyosati, yuz bergan parokandalik sabablari bizni hushyorlikka chaqiradi, Navoiyning Badiuzzamonga (aslida, Husayn Boyqaromga) yuborgan maktubidagi mummolar ham ko'zimizni ochishga chorlaydi.

Xolida MUSURMONOVA

Qorga maktub

“Qish hayotimizni noldan boshlashimiz uchun oq rangda yaratilgan”.

(Nadeya Yasminska)

Kuzning so'nggi tuni yig'lab hasrat qildi. Daraxt bargidagi so'nggi yaproq shamol bilan kurashib, oxiri yerga yiqildi. Shamol esa o'zicha g'olibdek sovuq tafti bilan qishni yetaklab keldi. Mag'rur...

Kuz sariq chaponiga o'rangancha ortga chekindi. Osmon xasta kuzni kuzatarkan yelkalarini silkib-silkib hasrat qildi. Xuddi shu payt qorning isi dimog'imga urildi. Osmonning hasrati uzoqqa cho'zildi shekilli, endi qor uchqunlari ko'payar, yer yuziga ham oppoq libos hadya etar edi.

Qish esa g'oliblik nashidasini surib, qimirlagan jonni qochmoqqa majbur etardi. Qish o'z hukmini yozmoqqa tirishib, derazalarga tushinarsiz suratlar chizardi. Zamin bag'ri ayozdan dir-dir titrardi. Daraxtlar yalang'och.

Quchog'ida g'ir-g'ir esayotgan shamolni erkalayotgan tabiat esa qandaydir mahzun. Qadoq qo'llarini issiq olov taftiga tutib xayolga cho'mgan bobodehqon chuqur o'yg'a ketdi. Qorning sog'inchi yuraklarni sog'irtirgani sabab barcha tashvishlarni unuttirdi-ko'ydi. Derazadan mo'ralab, uzoq kutilgan qor bilan yangi xayollar surdi.

Oppoq qor yog'yapti... Unda oq orzularning surati bor. Unda oppoq xotiralarning aksi zohir unda shirin orziqish bisyor. Yangi orzular yelkanini silkigan kemada suzmoqqa shay inson qiyofasi balqiydi...

Endigina zamin bag'rini qoplagan momiq qorning qadamlarim ostida topalishini istamay astagina odimlayman. Nazarimda oyoqlarim tagida qorning ingrayotganini eshitganday bo'laman. U go'yo meni ehtiyot qil deyayotganday iltijo qilardi. Qo'llarimga qo'nadi-yu bor tabassum hadya etib ko'zdan g'oyib bo'ladi. Beqaror ko'nglim dardini tinglab bardoshi yetmagan shekilli, kaf-timda erib, mudroq xotiralarni uyg'otib yuboradi. Qalbning hech kimga ochilmagan, faqat yog'ayotgan qorga hamohang nuqtalari isyon ko'taradi.

Vaqtdan tez ildamlamoqqa intilayotgan bu zarralar umrim lahzalarini so'roqsiz o'g'irlab ketardi. Men esa, shu onda negadir ojizman, shunchaki jim kuza-taman. Tutmoqqa intilsam-da, ko'zdan g'oyib bo'lardi. Yog'ayotgan qorga yuzimni bosaman. U ko'ngilning armon degan lahja cho'g'ini so'ndiradigandek taskin topaman.

Ana, o'sha tanish yo'lak... Bolaligim xotiralari muhrlangan, mendan bolaligimni tortib olgan o'sha tanish ko'chalar, quloqlarim ostida qolgan tanish shovqin-suron. Bolalar kulgisi. Qorga ilhaq yuragim bemajol titrab suvga boqadi. Ko'zimga qalqigan namlar

hayot hukmiga bosh ko'targan, ba'zida egilgan bardoshni qo'ltiqdigan, sinovlarda toblangan inson sifatida o'zimizni ko'rsatadi.

Qor hayot sahifamdagi butun ranglarni o'chirib, yangi bir mo'yqalam va ranglar tutqazadi. Go'yo “ma, ol, hayotni istagan rangga bo'ya, sen o'z hayoting mo'yqalami sohibisidan” degandek. Har gal qish kelsa butun xotalarim uning o'chirg'ichida o'chadi tanimga esa yangi ruh kiradi. Qor esa butun borligim sovg'asi.

Qo'limga qo'ngan so'nggi qor parchasining gulfusxa shaklini ilg'ashga ulgurmaganimga xuddi yosh boladek o'kinaman. Shu payt qor qo'ynida qiy-chuv o'ynayotgan kichkintoylar xayolni olis bolalikka olib ketadi. Qishning izg'i-

rinini pisand etmagan ko'ngillar tafti xotalar bag'riga bizni mudom tortaveradi. Biz esa qor qayta-qayta yog'ishini istab uni kutaveramiz. Har qor yog'ganda esa hayotimiz yangitdan boshlanadi...

Senga maktub bitdim qo'lim qaltirab, Yoshlik sho'xligimni olib ketma qor. Sendan o'zga hech kim

so'rmadi ko'nglim, Shu sovuq taftingdan judo etma qor.

Tunlar yig'lab kundan

yashirdim dardim,

Kel shu izhorimni olib ketma qor.

Garchi omonat jon titrasa bargdek, Meni xazonlarga berib ketma qor.

Sevara ABDUMAJIDOVA, NavDPI talabasi

Ona bo'ri qismati

Bir-biriga tutash osmono'par Qo'ytoş tog'larini makon qilgan tutqich bermas yirtqichlarning hayot tarzi og'ir va beshafqat kechadi. Ular o'n besh chog'li bo'lib, xavf-xatarlarni birgalikda yengadi, ayniqsa, to'dada ona bo'ri bo'lganda yanada jangarilashib ketadi.

“Bir bo'ri butun to'da uchun, butun to'da bir bo'ri uchun” iborasi hech mubolag'asiz shu yirtqichlar galasiga nisbatan aytilgan deb o'ylaysiz. Nega-ki, ular o'z hududlarini belgilab olish va yemish uchun bo'ladigan kurashlarda o'ta kuchli, olg'ir va tajribaligi bilan boshqa hayvonlardan ajralib turadi. Ularning tutqinlikka aslo toqati yo'q, doim erkin va ozod yurishini xush ko'radi.

Bu jonzoqlar tabiatning bir bo'lami hisoblanadi. Yirtqich bo'rilar ekomuvozanatni ta'minlab turadi. Faqat ulardan chorvadorlar ehtiyot bo'lishsa bas.

“Bo'rini oyoqlari boqadi”, deydi keksa ovchilar. Bu ayni haqiqat. U tinib-tinchimas, baquvvat va uzun oyoqlari bilan quvvatini tejab, o'zini ko'p urintirmay, mayda-mayda qadam tashlab, bir kecha-kunduzda sakson chaqirimgacha masofani bosib o'ta oladi. Oqshomlari

salqin tik dovonlar osha, to'qay va qamishzorlar oralab, adoqsiz taqir dalalarni kezishning o'zi bo'lmaydi. Ularga ayozli achchiq sovuq ham pisand emas. Ovchilar ularning o'ta hushyor, olisdan eshita olish va ko'rish xususiyatlariga ega ekaniga ko'p bor guvoh bo'lishgan.

Bir vaqtlar yosh, ko'rkam va fusunkor bo'lgan ona bo'ri yelib-yugurib sira charchamas, kuch-quvvati ham shunga yarasha edi. U bo'rivachchalarining uzoq davom etadigan bolalik davri nihoyasiga yetib ulg'aygunlaricha qancha-qancha balo-qazolarni boshidan o'tkazmadi. Bo'rivachchalarga tevarak-atrofdagi boshqa to'rt oyoqli mavjudotlar havas bilan boqishi ham bejiz emas. Bir so'z bilan aytganda, ona bo'rining qaynoq va behalovat kechgan hayot yulini o'z to'dasiga ibratdir. Shuning uchun ham bo'rilar to'dasi unga so'zsiz itoat qiladi.

Vaqt o'tgan sayin ona bo'ri kuch-quvvatdan qolib, yolg'iz tog' oraliqlarida yashashga majbur bo'ldi. Yirtqich Ravot qishlog'idagi ferma va otar mollariga goh-goh oralab turar, borgan joyidan quruq qaytmas edi. Ba'zida qorni tatalab turganda yo'lida duch kelgan quyon go'shti bilan ham yengil tamaddi qilishga qanoatlanardi.

Qish oxirlab bir-biriga tutash tuya o'rkachini eslatuvchi tizma tog' yon bag'irlarida bahor nafasi ufarib qoldi. Ona bo'ri esa hamon qishloq atrofidan nari

ketmas, odamlar tinchini buzib kelardi. Ferma va otar qo'ychivonlarining esa oromi yo'q.

Yarador ona bo'ri tabiatning latofati va go'zalligi, osmonning musaffo va beg'uborligi hamda yulduzlarning charaqlab turishiga qarab uzoq tikilarkan, beixtiyor o'tgan o'n besh yillik qaynoq hayot yo'lini bir-bir esladi. O'z to'dasiga qaytib yana ular safida yurish istagi ham yo'q emasdi. Nachora, buning iloji yo'q. Vaqt o'tgan sayin kuch-quvvatdan qolib, tanasi bir parcha etga aylanib qolgandi. Lekin

nazarida hayot yo'li hali-beri tugamaydiganday edi. Har tong u yangi kunni xushkayfiyat bilan qarshilardi.

Oradan yana bir hafta vaqt o'tdi. Hamisha tip-tikka va uzun quloqlari ham shalpayib qoldi. U shu taxlit quyosh bo'y ko'rsatganda ham joyidan qo'zg'almadi. Ajabo, oxirgi marta nima yegan edi-ya? Lekin eslolmaydi. Bora-bora uning boshi aylanib, oyoqlari o'ziga bo'ysunmay, tomog'iga nimadir tiqilganday bo'ldi. Qimirlashga majoli yo'q ona bo'ri ochlikdan “dag-dag” titrardi. Oxiri u hushini yo'qotdi. Muzlay boshlagan oyoqlarining sog' joyi yo'q: suyagi sinib qiyshiq bitgan, sochma qo'rg'oshin o'q izlaridan chandiqlar hosil bo'lgan, to'mtoq panjalaridagi qirg'iq tarmoqlari — barcha-barchasi uning ayanchli qismatidan darak berardi.

Atrofdan uchib-qo'nib yurgan bir juft qarg'a nihoyat unga yaqinlashdi. Jon taslim qilganiga ishonch hosil qilgach, qushlar uning junini tortqilay boshladi. Ona bo'ri endi qimirlamas, uning yashil rangli ko'zlari ochiq qolgandi.

Iroda QOSIMOVA, Sharof Rashidov tumanidagi 1-umumta'lim maktabi biologiya fani o'qituvchisi